

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 260 (1321), 2024-yil 24-dekabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## QORAQALPOG‘ISTONDAGI IMKONIYATLAR SAMARALI ISHGA SOLINSA, HUDUD TARAQQIYOTI JADALLASHADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-dekabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasida qo‘shimcha imkoniyatlarni ishga solish, investitsiyani ko‘paytirish va aholi bandligini oshirish bo‘yicha 2025-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Bu yil Qoraqalpog‘iston uchun barakali keldi, deyish mumkin. Yangi sanoat korxonalarini, turizm maskanlari, energetika quvvatlari, IT-park ishga tushirildi. Qoraqalpog‘istonni Xorazm bilan bog‘laydigan 423 metrli yangi avtomobil va temir yo‘l ko‘prigi ochildi. Bu orqali yuk va yo‘lovchi tashish masofasi 180 kilometrqa qisqardi.

323 million dollar hisobiga yangitdan qurilgan “Qo‘ng‘iroq — Beynov” avtomobil yo‘lining 240 kilometr qismi foydalanishga topshirildi. Shuning o‘zi tranzit va boshqa xizmatlar hajmi yiliga 200 million dollarga oshishiga zamin yaratadi. Yaqinda 196 kilometrli “Miskin — Nukus” temir yo‘lini elektrlashtirish ishlari ham boshlanadi.

Hududda sanoat, tadbirkorlik va infratuzilma sohalarida 50 dan ortiq imtiyoz va yengilliklar berilgan. Xususan, investitsiya loyihalari uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yer ajratish huquqi faqat Qoraqalpog‘istonda joriy qilingan.

O‘zbekiston Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti bu yil Nukusda o‘tkazilib, hududning salohiyati ko‘rsatib berildi. Chet ellik investor va mutaxassislar ham u yerda daromad topish uchun katta imkoniyatlar paydo bo‘lganini aytayapti.

Masalan, mavjud iqtisodiy salohiyat kompleks tahlil qilinib, qishloq xo‘jaligi, turizm va xizmatlar sohasida 2,5 milliard dollarlik imkoniyatlar aniqlangan.

Hozir 87 ming gektar paxtadan o‘rtacha

28 sentner hosil olinayotib, 10 ta tumanda rentabellik past. Ekspertlar bunday kam hosilli paxta maydonlarini qisqartirib, o‘miga chorva ozuqasi va kunjut ekishni tavsiya qilmoqda. Ozuqabop ekinlar hisobiga 6,5 trillion so‘mlik go‘sht va sut yetishtirish, kunjutdan eksportni 500 million dollarga ko‘paytirish mumkinligi hisob-kitob qilingan. Bu orqali ancha suv ham iqtisod bo‘ladi.

Shuningdek, Mo‘ynoqning o‘zida kamida 1 milliard dollarlik turizm loyihalari uchun salohiyat bor. Yaxlit majmualarni ishga tushirib, 1 million sayyohga xizmat ko‘rsatish va 5 ming aholini daromadli qilish mumkin.

Etno va ekoturizm bo‘yicha ham imkoniyatlar to‘la ishga solinmay turibdi. I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san‘at muzeyi, “Chilpiq” yodgorligi, Ayoq qal‘a, Tuproq qal‘a kabi 200 dan ziyod diqqatga sazovor joylar bor. Bu ham 3 million turistni jalb etib, bir necha kun aylantirish uchun dastur bo‘la oladi.

Shunday imkoniyatlari bo‘lgan respublikaning mutasaddilari, tuman hokimlari vazifasiga shaxsiy mas‘uliyatini oshirishi zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Tadbirkorlarga hudud salohiyatini ko‘rsatib, loyiha taklif qilish, biznesga ko‘makchi bo‘lish kerak. Ana shunda yangi-yangi ish o‘rinlari, qo‘shilgan qiymat va eksport bo‘ladi, odamlarning daromadi ko‘payadi.

Yig‘ilishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi shu kabi

imkoniyatlarni ishga solish, investitsiya va ish o‘rinlarini ko‘paytirish bo‘yicha rejalarni taqdimot qildi.

Davlatimiz rahbari ularning tarkibiga e‘tibor qaratdi. Xususan, kelasi yil uchun reja qilingan 3,1 milliard dollar investitsiyaning bor-yo‘g‘i 500 million dollari hududiy loyihalarga to‘g‘ri keladi.

Shu bois, tumanlardagi hamma imkoniyatlarni safarbar qilib, bu nisbatni ko‘paytirish kerakligi ta‘kidlandi. Buning uchun qo‘shimcha 1 milliard dollarlik hududiy loyihalar shakllantirilib, 120 ta korxonaga ishga tushiriladi. Eksport miqdori 500 million dollarga yetkaziladi.

85 ta yirik korxonaga to‘liq quvvatga olib chiqiladi. Shuningdek, yangi korxonalar, savdo va servis maydonlari tashkil etilib, 150 ming odamning bandligi ta‘minlanadi. Natijada ishsizlik darajasi 5,4 foizga tushadi. 20 ming ehtiyojmand oilaga daromad manbai yaratilib, kambag‘allikni 7,6 foizga kamaytirish choralarini ko‘riladi.

Hozirgi kunda Qoraqalpog‘istonda 1 gigavattli shamol elektr stansiyasi qurilyapti. Jami 9,3 gigavattli shunday stansiyalar qurish bo‘yicha loyihalar boshlanayapti. Bu — yiliga 33 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi, degani. Tabiiy gaz bo‘yicha ham qulaylik ko‘p.

Shuning uchun metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari kabi tarmoqlardagi ko‘p energiya talab qiladigan yirik loyi-

halarini Qoraqalpog‘istonda joylashtirish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Qishloq xo‘jaligida ham samaradorlikni oshirish zarur. Sug‘oriladigan yerlarda jami 3 ming gektar sanoatlashgan bog‘ va tokzor barpo qilinadi. 31 ming gektarda kunjut, 22 ming gektarda mosh ekib, eksportga yo‘naltiriladi. 30 ming gektarda qizilmiya ekish bo‘yicha uch yillik dastur ishlab chiqiladi.

Bular Qoraqalpog‘istondagi imkoniyatlarning ayrimlari, xolos. Ularni samarali ishga solish hududning jadal taraqqiyotini ta‘minlaydi.

Shu bois, Qoraqalpog‘istonda 3 ta asosiy yo‘nalish — qishloq xo‘jaligi, sanoat va turizmni rivojlantirish bo‘yicha loyiha ofisi tashkil etiladi. Mazkur tuzilma har bir tumanning o‘shish nuqtalarini tahlil qilib, qanday ekinlarni yetishtirish, yerdan daromadni ko‘paytirishga yordam beradi. Xomashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha loyihalar tayyorlab, hokimlarga yetkazadi. Yangi turizm yo‘nalishlarini ochish va ularga infratuzilma olib borish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Mutasaddilarga investitsiya loyihalarining borishi, bandlik va eksport rejalari ta‘minlanishini alohida nazorat qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Nufuzli xorijiy ekspertlarni jalb qilib, har bir tumanni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish topshirildi.

O‘ZA

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN ROSSIYA FEDERATSIVASIDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 25-26-dekabr kunlari bo‘lib o‘tadigan MDH va YOII sammitlarida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Sankt-Peterburg shahrida bo‘ladi.

Mamlakatimiz yetakchisi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlat rahbarlarining norasmiy uchrashuvi va Oliy Yevrosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishida kuzatuvchi maqomida ishtirok etadi. Sammitlar kun tartibidan mazkur ko‘p tomonlama birlashmalar doirasidagi

o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari o‘rin olgan. Birgalikda qilingan ishlarning asosiy yakunlari sarhisob qilinadi va kelgusi yilgi amaliy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan fikr almashiladi.

O‘ZA

## Kun nafasi

## “CHEMPION” TADBIRKORLARGA HAVASIM KELDI

Keyingi yillarda mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhiti, biznes egalari uchun yaratilgan qulay va imtiyozli sharoitlar tadbirkorlikka qo‘l urish istagidagi insonlar safini kengaytirmoqda. Umuman, hozir tadbirkorlar haqida gap ketsa, atrofmizdagi o‘nlab insonlarni bemalol sanab beramiz. Chunki ular avvalgidek yashirincha va qo‘rqib emas, balki ochiq-oshkora, bevosita davlat ko‘magida, ko‘plab imtiyozlardan foydalangan holda mehnat qilyapti. Iqtisodiyot tarmoqlari rivoji, hududlar taraqqiyoti, aholi bandligini ta‘minlash hamda mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri — kambag‘allikni qisqartirishga hissa qo‘shmoqda.

Yurtimizda yakuniga yetayotgan 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili o‘z nomi bilan chinakam ishbilarmonlikni rivojlantirish davri bo‘ldi. Buni raqamlar ham, erishilgan natijalar ham ko‘rsatayapti. Muhimi, tadbirkorlarda o‘ziga ishonch, ishlab chiqarish va katta

bozorlarga chiqishda yaxshigina tajriba shakllandi. Ular endi ortga qaytish, ishini to‘xtatish emas, balki faoliyatini yanada kengaytirib, daromadini oshirish, savdo aylanmasini yuqori summalarga chiqarish haqida o‘ylayapti.

Davomi 2-betda

## “PREZIDENT ARCHASI” UNUTILMAS, YORQIN TAASSUROTAR BAYRAMI



Mamlakatimizda yosh avlodga g‘amxo‘rlik va e‘tiborning yorqin ifodasi bo‘lgan “Prezident archasi” tantanalari bolajonlarning eng sevimli bayramlaridan biriga aylanib ulgurgan.

Kuni kecha poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida bo‘lib o‘tgan an’anaviy “Prezident archasi” tadbiri bolajonlar qalbiga o‘zgacha shukuh ulashib, ularni yorqin taassurotlarga oshno etdi. Bayram tantanalari ijtimoiy himoyaga muhtoj, ota-onaga qaramog‘isiz qolgan,

imkoniyati cheklangan bolajonlar taklif etildi. Alohida e‘tibor va g‘amxo‘rlikning yorqin ifodasi bo‘lgan bu tadbir o‘g‘il-qizlarni insonparvarlik va oiljanoblik ostida birlashtirdi, mehr ulashdi.

Davomi 2-betda

## 2024-YIL: ISLOHOTLAR SARHISOB

## YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATIDA ORTGA QAYTMAS YANGILANISHLAR AMALGA OSHIRILAYOTGAN YURT

Huquqshunos tahlilchi sifatida hech ikkilanmasdan aytishim mumkinki, 2024-yil tom ma‘noda “yoshlar uchun yangi ufqlarni kashf etish, ularning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish, yangi imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratish yili” bo‘ldi! “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da mamlakatimizda yoshlarga doir yuritilgan oqilona siyosatning quyidagi ijobiy jihatlarni alohida qayd etish o‘rinlidir.

Birinchi ijobiy jihati: yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining bosh me‘mori, asoschisi va fidoyisi — Prezidentimiz tomonidan yil davomida barcha sohalar kabi yoshlar siyosatida ham ortga qaytmaz islohotlar amalga oshirildi.

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning istaklarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish eng muhim masala sifatida doim kun tartibida turganini alohida qayd etish kerak. Davlatimiz rahbari 2024-yilning 1-yanvardan 24-dekabrigha qadar milliy va xalqaro doiradagi ma‘ruza va nutqlarida, o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishlarida 108 marotaba yoshlar siyosatining muhim masalalariga o‘z e‘tiborini qaratgani ham fikrimiz isbotidir.

Ikkinchi ijobiy jihati: yilning asosiy ijro hujjati hisoblanmish “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi



xalqimiz, avvalo, yoshlarning keng muhokamasiga taqdim etilib, ularning fikr va takliflari asosida qabul qilindi va ijroga qaratildi.

Ushbu ijobiy holat yoshlarga o‘zlar uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan hamda ularni o‘ylantirib kelgan dolzarb masalalarni hal etish, yaratilishi zarur bo‘lgan yangi imkoniyatlarni ishga tushirish bo‘yicha katta kuch berdi. Natijada yoshlarning taklif va tashabbuslari davlat dasturida o‘z ifodasini topdi va shu asosda yil davomida ko‘plab masalalar ijobiy hal etib kelinmoqda.

Uchinchi ijobiy jihati: joriy yilda yoshlar bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni quyi bo‘g‘inning o‘zida ijobiy hal etish imkoniyati yanada oshirildi.

Dunyoda o‘xshashi yo‘q noyob tizim — “mahalla yetiligi” orqali minglab yigit-qizlarni kasb-hunariga o‘qitish, bandligini ta‘minlash, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq ko‘plab masalalar ijobiy hal qilindi. Jumladan, yil davomida “mahalla yetiligi” tavsiyasi bilan 156 ming yoshga 60 ming gektar yer 30 yil muddatga ijaraga berildi. Bu shuncha xonadonga umid kirdi, shuncha yoshning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yo‘l ochildi, degani.

To‘rtinchi ijobiy jihati: yil davomida yoshlarga oid davlat siyosati doirasida yoshlarning barcha qatlamlari manfaatlariga birdek xizmat qiluvchi manzilli oqilona siyosat yuritildi.

Davomi 3-betda

# “CHEMPION” TADBIRKORLARGA HAVASIM KELDI

## Boshlanishi 1-betda

Kirib kelayotgan yangi yil oldidan erishilgan natijalarni sarhisob qilishning ham hikmati bor. Yana bu amaliyot davlat rahbarining o‘zi bilan bo‘lsa, soha vakillariga yanada kuch beradi. Joriy yil 20-dekabr kuni Prezidentimizning yurtimiz yetakchi tadbirkorlari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvini havas bilan kuzatdim. Bu davlatimiz rahbarining biznes egalari bilan shu yilning o‘zida o‘tkazgan ikkinchi ochiq muloqoti. Bundan oldingi muloqot an‘anaga ko‘ra, 20-avgustda bo‘lib o‘tgandi. O‘shanda tadbirkorlar tomonidan o‘nlab taklif va tashabbus bildirilib, o‘rtaga tashlangan muammo va masalalarning yechimi yangi qaror, farmonlar orqali amaliyotga tatbiq etildi, biznes egalari qo‘shimcha yengillik va imtiyozlar berildi.

Bu galgi videoselektor shaklida o‘tgan muloqot sohani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ortda qolayotgan yil sarhisobi hamda 2025-yilga mo‘ljallangan rejaralar muhokamasiga bag‘ishlandi. Tadbirkorlar bilan bir yilning o‘zida ikkinchi bor o‘tkazilgan ochiq muloqot xorijiy axborot nashrlari e‘tiboridan ham chetda qolmadi. Xususan, Pokistonning qator markaziy axborot agentliklari, elektron platforma va davriy matbuot sahifalarida tadbir to‘g‘risida materiallar chop etildi.

Mahalliy nashrlar orqali shu kunning ruhiyatini faol kuzatib turdik. Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari nutq so‘zlab,



## Kun nafasi

tadbirkorlarga o‘z ishonchi, hurmatini bildirdi. Ishbilarmonlar birin-ketin so‘zga chiqib, yangi loyihalari, takliflari, tizimli muammolar haqida gapirdi. Prezidentimiz tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda davom etishini ta‘kidlab, kelasi yili beriladigan yangi imtiyozlar haqida ham aytib o‘tdi. Masalan, 2025-yil 1-yanvardan yer yoki davlat mulki qo‘shimcha qiymat solig‘isiz sotiladi, mobil aloqa uchun aksiz solig‘i bekor qilinadi. Nashriyot korxonalarida foyda solig‘ini to‘lashdan 5 yilga ozod etiladi. IT park rezidentlariga barcha turdagi soliqlarni to‘lashdan ozod etish bo‘yicha imtiyozlar 2040-yilgacha uzaytiriladi va hokazo. Ochig‘i, bunday yengilliklar ko‘plab biznes egalari uchun yangi yil oldidan ajoyib sovg‘a bo‘ldi.

sohiladi, mobil aloqa uchun aksiz solig‘i bekor qilinadi. Nashriyot korxonalarida foyda solig‘ini to‘lashdan 5 yilga ozod etiladi. IT park rezidentlariga barcha turdagi soliqlarni to‘lashdan ozod etish bo‘yicha imtiyozlar 2040-yilgacha uzaytiriladi va hokazo. Ochig‘i, bunday yengilliklar ko‘plab biznes egalari uchun yangi yil oldidan ajoyib sovg‘a bo‘ldi.



## SOLIQ TO‘LASHDAN QOCHISH — INSOFSIZLIK

Tadbirkorlar bir joyda to‘plana, albatta, katta raqamlar haqida gap boradi. Aslida, mamlakatimiz iqtisodiyoti o‘shish ko‘rsatkichlaridagi raqamlarning o‘zi kattalashib boryapti. Xususan, bu yil yurtimiz iqtisodiyoti 6,3 foiz oshib, 111 milliard dollarga yetdi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasiga 38 milliard dollar investitsiya kirdi, eksport 26 milliard dollardan yuqoriladi. Bu natijalarga erishishda shu yilning o‘zida tadbirkorlar faoliyati uchun g‘oyat muhim bo‘lgan 5 ta qonun, 101 ta farmon va qaror qabul qilindi ham katta ahamiyatga ega. Bu orqali biznes egalarning hududlar iqtisodiy o‘shishi, aholi bandligini ta‘minlash, yurtdoshlarimiz turmush sharoitlarini yaxshilashdagi ulushi ortib boryapti.

### Shuhrat ERGASHEV, “International beverages Tashkent” MCHJ ta‘sischisi:

— Ochig‘i muloqot faqatgina tadbirkorlar bilan uchrashuv emas, balki iqtisodiy rivojlanishning yangi qirralarini belgilab beruvchi yo‘nalish sifatida ahamiyatlidir. Chunki davlatimiz rahbari ishbilarmonlarning o‘zidan tizimli muammolarni eshitib, ularga



aniq yechimlarni beryapti. Hech bir yo‘nalish e‘tibordan chetda emas. Ayniqsa, oziq-ovqat yetishtirish va ishlab chiqarish sohasida belgilangan rejaralar nihoyatda katta. Kelasi yili meva-sabzavot eksportini qariyb 3,5 milliard dollarga yetkazish ko‘zlangan. Bu soha ishlab chiqaruvchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratishga asos bo‘ladi. Shu qatorda bizning korxonamiz uchun ham. Chunki asosiy faoliyatimiz oziq-ovqat sohasi, yiliga 5 trillion so‘mlikdan ziyod mahsulot tayyorlaymiz. Korxonalarimizda

jami 3800 kishi ishlayapti. Ayni paytda O‘zbekistondagi soliq to‘lovchi 10 ta yirik korxonadan biri hisoblanamiz va bu bilan faxrlanamiz.

Muloqotda yirik tadbirkorlardan biri o‘z nutqida davlat tomonidan shuncha imtiyozlar berilayotgan sharoitda soliqlarni to‘lashdan qochish insofsizlik ekanini aytib, bunday biznes egalarga boykot e‘lon qilishni taklif etdi. Uning so‘zlarini eshitib, 10-15 yillar oldingi holat ko‘z oldimdan o‘tdi. Birgina do‘koni bor odami ham tadbirkor sanardik. Chunki undan kattaroq tadbirkorlarni bilmasdik, borlari ham qo‘rqib, mol-mulkini, daromadini, hatto o‘zini yashirib yashardi. Kattaroq tadbirkor haqida eshitib qolsak, noqonuniy ishlaydi deb hisoblardik. Yana o‘sha kichikgina do‘koni bor odam nuqul soliqlardan qochardi. Aksiga olib, soliq to‘lovchilar ham ha desa eshigini taqillatib kelaverardi.

Bugun tadbirkorlarning o‘zi soliqlarni vaqtida to‘lashga chaqiryapti. Chunki tizim shaffof, to‘lovlar qayerga, nimaga ketayotgani ma‘lum. Tadbirkorlarni hech kim ortiqcha pul olmaydi, daromadini surishtirmaydi. Ishlasa, qancha ko‘p pul topsa, shuncha yaxshi. Faqat halol ishlasa bo‘lgani. Bu o‘ziga ham, davlatga ham, jamiyatga ham foyda.

## ISHBILARMONNING YUTUG‘I — BUTUN XALQIMIZ YUTUG‘I

Shulari o‘ylab turib, uchrashuv ishtirokchilari — tadbirkorlarga nazar tashladim. Orasida katta savdo aylanmasiga ega yirik biznes egalari ko‘p. Biz yaqinlashga ularni tanimasdik, bilmasdik. Endi esa daromadlari haqida ochiq gapirilyapti. Davlatimiz rahbari yurtimizda ishchilari 5 mingdan ziyod, yillik daromadi 1 trillion so‘mdan oshgan 142 nafar “champion” tadbirkor borligini faxr bilan ta‘kidladi. Bu korxonalariga davlat iqtisodiyotining lokomotivi sifatida yangi texnologiyalarni ko‘llash, aholi bandligini ta‘minlashda katta kuch sifatida qaralyapti. Kichik va o‘rta biznes vakillari ularga havas qilib, ergashyapti.

### Jahongir ORTIQXO‘JAYEV, tadbirkor, Toshkent shahri:

— O‘zbekistonda tadbirkorlar uchun shunday sharoitlar yaratildiki, natijada oxirgi yillarda 5-10 baravar rivojlangan korxonalar ko‘paydi. Yurtimizda biznes uchun keng yo‘l berilgani hamda tadbirkorlikka qiziqish uyg‘otdi. Birgina konvertatsiya ochilganining o‘zi katta narsa. Qolaversa, qo‘shni davlatlar bilan ochiqlik siyosati mahalliy ishbilarmonlarni yangi bozorlarga olib chiqdi. Hamma

soha, xususan, turizm yo‘nalishida katta o‘zgarishlar bo‘lyapti, oxirgi yillarda o‘shish 3 baravar oshdi, desak xato bo‘lmaydi. Shu bois, biz ham kompaniyalarimizga yangilik kiritib, yangi sohalarni yo‘lga qo‘yyapmiz. Bu yil Toshkent shahrida 6 ta mehmonxonaga qurilishni boshladik. Hammasi ekotimiz qilingan bo‘lib, 1200 o‘ringa mo‘ljallangan. Bu o‘rta Osiyoda eng katta mehmonxonalar tizimi bo‘ladi va kelasi yil oxirida bitirishni rejalashtirganmiz. Tibbiyot turizmi yo‘nalishida ham loyihalarni boshlaymiz. Dunyoda reytingi bo‘yicha eng yetakchi o‘rinda turadigan shifoxonalar rahbarlari bilan uchrashdik, barchasi hamkorlikka tayyor.



rozi bo‘ldi. Hozir AQSHning Klivlend shifoxonasini bilan birgalikda tibbiyot muassasasi qurilishini rejalashtiryapmiz. Ular kadrlar almashinuvi, o‘qitish bo‘yicha ham hamkorlikka tayyor.

\*\*\*

Ana shunday tashabbuskor, faol tadbirkorlarni ko‘rib, yurtimizda biznes vakillariga katta ishonch, rag‘bat va imtiyozlar berilayotganiga amin bo‘ladi kishi. Davlatimiz rahbari uchrashuv so‘ngida tadbirkorlarning loyiha va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga doim tayyorligini bildirib, tadbirkorning yutug‘i butun xalqimizning yutug‘i ekanini ta‘kidladi. Uchrashuvdan tadbirkorlar qatori men ham zavqlandim. O‘z biznesimni ochish istagim yanada qat‘iylasdi. Balki yaqin yillarda ana shu tadbirkorlar qatorida bo‘larman. Har holda, shunday yaxshi niyatim bor. Axir yangi yil — yaxshi niyatlar, ezgu orzular, katta maqsadlar ballasi.

### Iroda TOSHMATOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

tashkilotchilariga katta rahmat. Biz bayram tantanalarida yangi do‘stlar ortirdik, hammamiz birgalikda xursandchilik qildik.

Dastur davomida namoyish etilgan teatr tomoshalari, interaktiv o‘yinlar, sirk san‘atkorlarining qiziqarli chiqishlari hamda mashhur estrada xonandalari qo‘shiqchilari bolajonlarga olam-olam quvonch bag‘ishladi. Tadbir yakunida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali bolajonlarga sovg‘alar tarqatilib, ularga bayramona kayfiyat ulashildi.

“Prezident sovg‘asi” dasturi doirasida respublikamiz bo‘ylab jami 10 ming 282 nafar Mehribonlik va Muruvvat uylari o‘g‘il-qizlari, SOS — bolalar mahallalari, Go‘daklar uyi, Oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchilari, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, yurtimiz tinchligi yo‘lida qurbon bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining farzandlari uchun 12 nomdagi o‘quv qurollari va 15 nomdagi shirinliklardan iborat bo‘lgan Prezident sovg‘alari tayyorlandi.


Yurtimizda bayram arafasida mehramuruvvat, g‘amxo‘rlik va saxovat ko‘rsatish an‘ana tusini olgan. “Prezident archasi” va “Prezident sovg‘asi” dasturlari mamlakatimizning boshqa hududlarida ham davom etib, ko‘rsatilayotgan e‘tibor va qo‘llab-quvvatlov bolalarning kelajakda jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Zero, ular ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lsa-da, davlatimiz e‘tibordan chetda qolmaganini his etadi. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, farzandlarimizga qilgan har bir yaxshiligimiz o‘n yaxshilik bo‘lib qaytadi.

### Risolat MADIYEVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

ertagi bolalarni bir muddat orzular olamiga yetakladi. Qiyinchiliklardan cho‘chimaslik, ularni yengib o‘tish, sportda faol bo‘lishga udagan bu ertak o‘g‘il-qizlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

— “Ayoz bobo” ertagi bizga izlanuvchan, harakatda bo‘lsak, albatta, oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishish mumkinligini o‘rgatdi, — deydi poytaxtimizdagi 238-maktabning 9-sinf o‘quvchisi Asaloy Mixliyeva. — O‘z ustida ishlab, sportga oshno bo‘lish, jasorat, ishonch tuyg‘ulari insonning ko‘nglini yuksaltiradi. Bayram



## IJTIMOY MAS‘ULLIK

Soliqlarni o‘z vaqtida to‘laydigan ishbilarmonlar uchun moliyaviy manfaatdorlik bor. Bu ularga Tadbirkorlarning barqarorlik reytingidagi o‘rni mustahkamlash, shu orqali yangi va qo‘shimcha imtiyozlarga ega bo‘lish imkoniyatlarini beradi. Shu bois, soliqlarni o‘z vaqtida, ta‘bir joiz bo‘lsa, bajonidil to‘layotgan korxonalar soni ortib bormoqda.

### Anvar NORBOYEV, tadbirkor, Samarqand shahri:

— Korxonamizda uchta loyihani amalga oshirdik. Bular — energiyetajamkor transformatorlar, elektr tarmoqlarining avariya-siz ishlashi uchun zarur bo‘lgan zamonaviy vakuumli ajratkichlar hamda o‘lchov transformatorlari ishlab chiqarish loyihalari. Mahsulotlar doimiy ishlab chiqarilyapti. Bugungi kunga kelib, korxonamizning sanoat yo‘nalishida 120 dan ortiq kishi mehnat qilyapti. Bu borada yirik tadbirkorlarni ko‘rib, ulardan ilhom olyapmiz. Davlatimiz rahbari bilan bo‘ladigan har bir muloqotda yangi g‘oyalarni

kuch olamiz, oldimizga aniq vazifalar qo‘yamiz. Ayniqsa, tadbirkorlarga shaffof ishlash, faoliyatida “yashil” energetikani kengroq qo‘llash bo‘yicha qo‘yilgan masalalar juda dolzarb. Hozirgi global ekologik sharoitda sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli chiqindilarni kamaytirishda, avvalo, biz, tadbirkorlardan tashabbuskorlik talab etiladi. Buning uchun korxonalarda foydalanilayotgan elektr energiyasining katta qismini “yashil” energetika hisobidan hosil qilishga o‘tishimiz lozim. Yurtimizdagi yirik loyihalar bunga imkon beradi. Oldimizdagi yana bir vazifa ko‘proq odamni ish bilan ta‘minlashdan iborat. Kelasi yili yurtimizda 5 million aholini band qilish, 1,5 million odamni kambag‘allikdan chiqarish maqsad qilingan. Bunga biz ham hissamizni qo‘shishga tayyormiz. 2025-yilda yana yuzlab bo‘sh ish o‘rni yaratishni ko‘zlayapmiz.

Yig‘ilishda kelasi yildan taqdim etiladigan yangi imtiyozlar haqida ham so‘z bordi. Tadbirkorlar bunday imkoniyatlardan mamnun. Mamnun bo‘libgina qolmay, bunga



o‘z faolligi, yangi ishlab chiqarish quvvatlari, jamiyat farovonligiga daxldorlik hissi bilan javob bermoqda. Ayniqsa, daromadga kirgan ko‘plab tadbirkorlarning ijtimoiy mas‘ulligi oshayotgani quvonarli. Xususan, o‘tgan qisqa vaqt davomida tadbirkorlarimiz kambag‘al oilalarning 387 ming a‘zosi va nogironlari bor 40 ming odamni daromadli qildi. Balki biznes egalari daromadi oshib, bu soha mamlakatimizda katta kuchga aylanib borayotgani sabablaridan biri ham xalqimizga xos insonparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik fazilatlarini ko‘rsatib ajabmas.

## Shukuh

### Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda bola huquqlarini himoya qilish va manfaatlarini ta‘minlash borasida salmoqli sa‘y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar, ayniqsa, bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli dasturlar bunga misoldir. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularga sifatli ta‘lim-tarbiya berish hamda ijtimoiy himoya qilish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar mehr va ko‘mak tizimining aholiga yaqinlashtirilayotganiga, hech kim e‘tibordan chetda etmasligiga dalil bo‘la oladi. Xususan, joriy yilda “Prezident archasi” tantanalarining yuqori saviyada tashkil etilishi zamirida ham ana shu insonparvarlik, ezgu va xayrli maqsadlar o‘rin olgan.

— Bayram tantanalarida bolalarning quvonchi cheksizligini ko‘rib, ochig‘i, o‘zimizning ham dilim yayradi, — deydi Nargiza Ibrohimova. — Bolalar bayramlarni yaxshi ko‘radi. Ayniqsa, Yangi yilni intiqlik bilan kutadi. Turli tomoshalar, ertak qahramonlari, sport yulduzlari va san‘atkorlarning chiqishi bolalarda unutilmas taassurot qoldirdi. Bu yilgi bayramga farzandlarim bilan keldik. Ularga o‘z ota-onasidek munosabatda bo‘lishga harakat qilsak-da, baribir davlatimiz mehri qo‘msaydi. Prezidentimiz e‘tibori esa ularning ko‘nglini tog‘dek ko‘taradi. Birgina misolni aytam: shanba kunlari farzandlarimiz uchun turli sayohatlar tashkil etilmoqda. Barcha xarajatlar davlatimiz tomonidan qoplanadi. Ularning o‘sha paytdagi quvonchini bir ko‘rsangiz! Bu yuksak e‘tibor va beg‘araz ko‘mak



# “PREZIDENT ARCHASI” UNUTILMAS, YORQIN TAASSUROTLAR BAYRAMI

ularning ertaga yurt koriga yaraydigan farzandlar bo‘lib ulg‘ayishiga zamin yaratishiga ishonaman.

Ixtiyor Rahmatullayev va Nargiza Ibrohimovalar oilasida kamolga yetayotgan Soxan Bogdananing ham bu yil quvonchi cheksiz.

— Bu bayramda ishtirok etishni juda istagandim, — deydi u. — Yurtimizning mashhur insonlari, san‘atkorlar, sport yulduzlari chiqishlari juda qiziqarli bo‘ldi. Ulardan ko‘p narsa o‘rgandik. Yangi yil chindan sehrli bayram. Buni bayram tantanalarida ham his qildik.

Yangi yil ruhiga mos bezatilgan saroy sahnasida zamonaviy talqinda namoyish etilgan “Ayoz bobo” teatrlashtirilgan



ertagi bolalarni bir muddat orzular olamiga yetakladi. Qiyinchiliklardan cho‘chimaslik, ularni yengib o‘tish, sportda faol bo‘lishga udagan bu ertak o‘g‘il-qizlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

— “Ayoz bobo” ertagi bizga izlanuvchan, harakatda bo‘lsak, albatta, oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishish mumkinligini o‘rgatdi, — deydi poytaxtimizdagi 238-maktabning 9-sinf o‘quvchisi Asaloy Mixliyeva. — O‘z ustida ishlab, sportga oshno bo‘lish, jasorat, ishonch tuyg‘ulari insonning ko‘nglini yuksaltiradi. Bayram



“Yangi O‘zbekiston yoshlari” degan sharafli nomga har tomonlama munosib bo‘lgan holda yaratilayotgan imkoniyatlarga shukronalik hissi bilan yashash va mehnatkash xalqimizni rozi qilish, yangi O‘zbekistonning porloq istiqbolli yo‘lida tinmay mehnat qilish shu aziz yurtning barcha farzandlari uchun eng muqaddas burchdir!

## 2024-YIL: ISLOHOTLAR SARHISOBI



Boshlanishi 1-betda

Xususan, har bir vazirlik, agentlik va davlat organi kesimida ta'lim, tadbirkorlik, sport, turizm, ilmiy-innovatsion faoliyat, madaniyat va san'at, qishloq xo'jaligi, qurilish, temir yo'l, IT soha, iqtisodiyot, harbiy va mudofaa hamda boshqa tizimlardagi, shuningdek, ishsiz va ijtimoiy ko'makka muhtoj yoshlar uchun ham alohida dasturlar, reja hamda yo'l xaritalari qabul qilinib, ular asosida salmoqli yutuqlarga erishilmoqda.

Birgina ta'lim sohasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tarixiy rekord qayd etildi: joriy yilda maktab o'quvchilari nufuzli fan olimpiadalarida 128 ta, jumladan, 15 ta oltin, 36 ta kumush va 77 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilda 45 ta edi.

**Beshinchi ijobiy jihati:** yil mobaynida O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida zimmasiga olgan majburiyatlarini yoshlarga yaratib berilgan yangi imkoniyatlar misolida samarali amalga oshirdi.

Jumladan, “mahalla yetiligi” faoliyat natijasida oilalardagi, ayniqsa, yoshlarni o'ylantirgan ko'plab muammolarga ijobiy yechimlar berildi. Oqilona manzilli ijtimoiy siyosatning natijasi o'laroq, oilalarning “ijtimoiy portreti” chizilib, ular asosida har bir oiladagi yosh bilan ishlash bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi. Minglab yoshlar jamiyatga integratsiya qilindi, ular iqtisodiy faol qatlama aylandi.

Bu yil ijtimoiy yo'nalishda joriy etilgan o'ziga xos tajribalar sifatida:

- “ixtisoslashgan tutingan oila” tizimi;
- “Yoshlarga hamrohlik” dasturi, uning doirasida yetim va ota-ona qaramog'isiz toifadagi 14 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun “individual reja” asosida mahallalarda ijtimoiy xodimlar birlashtirilishi, oliy ta'lim, kasb-hunarga tayyorlash, uy-joy ijarasi hamda davolanish xarajatlari davlat tomonidan qoplab berilishi, ta'limni tamomlagan yoshlar davlat fuqarolik xizmatiga talovsiz qabul qilinishiga doir noyob tizim;
- ijtimoiy yordamlarni “ijtimoiy karta” orqali moliyalashtirish amaliyoti;
- go'daklar yetim qolishining oldini olish uchun “Onalar maskani” xizmati;
- “Inson” markazlari tomonidan haqiqatan uy-joyga muhtoj yoshlar ro'yxatini shakllantirish amaliyotini aytib o'tish o'rini bo'ladi.

Mazkur yangi tizim va amaliyotlar yoshlar hayotida ijobiy natijalar bermog'ida.

Yangi O'zbekistonda 2024-yilda yoshlarga oid davlat siyosatining mazmunini “yoshlarni o'z muammolari bilan yolg'iz qoldirmaslik, ularga davlatning, jamiyatning ertangi kuchi sifatida qarash” degan hayotiy tamoyil tashkil etdi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

### Yuksak natijalar porloq kelajakni kafolatlaydi

Ushbu yilda yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash borasida tarixiy va salmoqli yutuqlarga erishildi. Xususan, sohalar kesimida tahlil qilsak.

**Qonunchilik sohasida** yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi va soddalashtirildi. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasiga ko'ra, yil davomida yoshlar siyosatining barcha yo'nalishlari bo'yicha 88 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularning 19 tasi yoshlarga oid davlat siyosatining aniq yo'nalishlarini bevosita huquqiy tarbiya soladi, shundan 9 tasini Prezident farmoni va qarorlari tashkil etadi. Bundan ko'rish mumkin, davlatimiz rahbari tom ma'noda qonunchilik sohasida ham yoshlarning eng yaqin qo'llab-quvvatlovchisi hisoblanadi.

**Qishloq xo'jaligi sohasida** Prezidentimizning 2024-yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida 60 ming gektar yer elektron onlayn auktsion savdoga qo'yilib, dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun ustuvor ravishda yoshlarga ijaraga berildi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan sotishgacha bo'lgan zanjirni qamrab oluvchi yangi tizim joriy etildi.

Dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun yoshlarga ajratilgan 55,4 ming gektar maydonda qishloq xo'jaligi ekinlari to'liq ekilib, 1,2 million tonna mahsulot yetishtirildi hamda joriy yilning yanvar-noyabr oylari davomida 259,3 million dollarlilik 769,1 ming tonna sabzavot eksport qilindi.

Yoshlar har bir gektardan 75 million so'mgacha daromad olgani tashiga loyiq. Davlat tomonidan yo'lga qo'yilgan ushbu tizim:

birinchidan, qishloq joylardagi yoshlarning oldinga intilishi, jamiyatning o'z mustaqil mablag'iga ega bo'lgan faol qatlamiga aylanishi;



### Akbarshoh TESHABOYEV, O'z FA Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Ikkinchidan, yerlardan unumli foydalangan holda undan maqsadli foydalanish intizomi shakllanishi;

uchinchidan, bozorlarimiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'liq, narx-navo barqarorligini saqlash;

to'rtinchidan, sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti ko'payib, xorijiy valyuta oqimi ortishi, shuningdek, milliy iqtisodiyotimiz mustahkamligi uchun birdek xizmat qilmoqda.

**Mehnat va bandlik sohasi** borasida yil davomida “yoshlar balansi” bo'yicha 925 ming yigit-qizning bandligini ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'ridi. Shuningdek, bugungi kunda “Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi” loyihasi doirasida axborot texnologiyalari sohasida 70 ming yoshni band qilishga erishilmoqda.

**Raqamli texnologiyalar sohasida** bugungi kunda yurtimizda 80 mingga yaqin yosh IT bilan mustaqil shug'ullanmoqda. Chekka hududlardagi yoshlarga ham zamonaviy kasblarni o'rgatish orqali ularni jamiyatning iqtisodiy faol qatlamiga aylantirish maqsadida mamlakatimiz bo'ylab 15 ta hududda IT shaharcha tashkil etish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirilmoqda. Har yili ushbu shaharchalarda o'n mingga yaqin yosh tahsil olishi esa kelgusida axborot texnologiyalari sohasida yetuk mutaxassislar yetishib chiqishiga zamin hozirlamoqda.

**Tadbirkorlik sohasida** 2024-yilda tadbirkorlar faoliyati uchun g'oyat muhim 5 ta qonun, 101 ta farmon va qaror qabul qilindi.

Tadbirkorlikning istiqbolli ega yoshlarning iqtisodiy tashabbuskorligiga bevosita bog'liq. Yurtimizda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilda juda katta loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, tadbirkorlikning eng qulay shakllaridan biri — oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida berilgan kredit evaziga 1 milliondan ziyod yoshning bandligi ta'minlandi, 205 ta “Yoshlar sanoat zonasida”da 1200 ta loyiha ishga tushirildi. Quvonch bilan aytish joizki, yurtimizda bugungi kunda biznesdagi aylanma mablag'ini million dollardan oshirgan 1,5 ming nafardan ziyod yosh tadbirkor faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash Jahon savdo tashkiloti doirasidagi yuqori darajadagi raqobat muhitida “tik oyoqda tura oladigan” tadbirkorlar qatlamini yuzaga kelishiga ham xizmat qiladi.

**Sport sohasida** yurtimiz so'nggi yillarda dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirib bordi. Buni shu yil Parij shahrida o'tkazilgan Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida erishgan yuksak natijalarimiz isbotladi. Xususan, to'rt yillikning eng muhtasham musobaqasida jamoamiz sportimiz tarixidagi eng yuqori natijani qayd etib, jahon bo'yicha 13-o'rinni, Osiyoda 4-o'rinni, Markaziy Osiyo mintaqasi, MDH, TDT kabi tuzilmalar bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Yana bir e'tirofli jihat, bokschilarimiz jamoasi ushbu Olimpiya

o'yinlarida medal jamg'arish bo'yicha 1-o'rinda qayd etildi.

Paralimpiyachilarimiz ham umumjamao hisobida 13-o'rinni egalladi.

Sportchilarimizning bunday ulkan g'alabalari yangi O'zbekiston yoshlari naqadar kuchli va matonatlilik ekanini butun dunyoga yana bir bor namoyish etdi.

### Milliy parlament va mahalliy kengashlarni shakllantirishda yoshlar ishtiroki

Bu yil milliy parlamentimiz va xalq deputatlari mahalliy kengashlari saylovi ko'tarilgan ruhda, xalqimiz, ayniqsa, ovoz berish huquqiga ega yoshlarning uyushqoqligi asosida o'tgani bilan ham tarixda qoldi. Yangi konstitutsiyaviy makon va munosabatlar tizimi asosidagi saylovda ovoz berish huquqiga ega yoshlarning to'liq ishtirokini ta'minlash bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlar ko'ridi.

Saylovda 700 mingga yaqin yosh birinchi marta ovoz berish huquqidan foydalandi. Bu mamlakatimiz siyosiy hayotiga yangi hal qiltuvchi kuch kirib kelishini ifoda etdi.

Saylov kompaniyasi davrida ham yoshlar bevosita faollik ko'rsatdi. Xususan, 20 mingga yaqin yosh turli darajadagi saylov komissiyalari faoliyatida bevosita ishtirok etish orqali o'z siyosiy faolligini namoyon etdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga yangidan saylangan deputatning 2 nafari 30 yoshgacha, 38,6 foizi 30 yoshdan 45 yoshgacha ekan ham parlament tarkibida yosh parlamentariylar ovozi yangrashini anglatadi.

**“PREZIDENTIMIZ  
USHBU YIL XALQARO  
MIYOSIDA 27 MAROTABA  
YOSHLAR MASALASI  
HAQIDAGI TAKLIF VA  
TASHABBUSLARDAN  
12 TASINI XORIJIIY  
SAFARLARDA HAMDA  
15 TASINI XORIJIIY  
DELEGATSIYALAR  
BILAN UCHRASHUVLAR  
DOIRASIDA ILGARI SURDI.”**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahri va tuman (shahar)lar kengashlariga saylov natijalariga ko'ra, yangi saylangan deputatning 4 foizi 30 yoshgacha, 39,5 foizi 30 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgani ham qovonarli. Bu holat mahalliy darajadagi masalalarni hal etishda yoshlarning siyosiy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, yoshlarning ushbu siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki ularning vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotganini hamda kelajakka e'tibor va ishonchi bilan ekanini ko'rsatdi.

### Toshkent shahri — MDH mintaqasida birinchi yoshlar poytaxti

2024-yil yoshlar hayotiga doir yana bir muhim natija bilan tarixda qolyapti. Toshkent shahri MDH orasida birinchi yoshlar poytaxti maqomiga ega bo'ldi.

2023-yil 8-iyun kuni Sochi shahrida MDH hukumat rahbarlari kengashining “MDHning yoshlar poytaxti” xalqaro loyihasini amalga oshirish bo'yicha yig'ilishida “Toshkent shahri MDHning birinchi yoshlar poytaxti to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

Ushbu maqomga ilk marotaba aynan aholisining yammi yoshlardan iborat Toshkent shahri loyiq topilgan juda katta tarixiy natija bo'ldi.

Tadbir ochilishida ishtirok etgan Rossiya, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'is-

ton, Qirg'iziston va Tojikiston delegatsiyalari rahbarlari tomonidan O'zbekiston Prezidenti boshchiligidagi yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosati to'g'ri, oqilona va yoshlar bilan hamfikr holatda yuritilayotgani e'tirof etilganini eslab o'tmoqchiman.

Xalqaro tadbir MDH davlatlari o'rtasida madaniy-gumanitar, ijtimoiy, texnologik, ekologiya, innovatsiya va xalqaro sohalarda siyosati to'g'ri, oqilona va yoshlar bilan hamfikr qiyidagi ijobiy jihatlar bilan alohida ahamiyatga ega bo'lganini qayd etishimiz kerak:

**birinchi ijobiy jihati:** ushbu loyiha MDH doirasida madaniy-gumanitar sohalarda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shdi;

**ikkinchi ijobiy jihati:** loyihaning amalga oshirilishi MDH davlatlarining yoshlar bilan ishlash borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirishga xizmat qildi;

**uchinchi ijobiy jihati:** yoshlarning salohiyatini ro'yog'ga chiqarish borasida o'zaro tajriba almashish imkonini berdi;

**to'rtinchi ijobiy jihati:** yoshlar o'rtasida xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan mustarak fikr va maqsadlar shakllanishiga xizmat qildi.

Xalqaro tadbir doirasida Toshkent — MDH yoshlar poytaxti monumenti ochilgani ham ramziy ma'no ega. Bu shuni anglatadiki, yoshlar mamlakati bo'lmish O'zbekiston MDH doirasida yoshlar haqida eng ko'p qayg'uradigan, yoshlarni o'zaro do'stlik va hamjihatlik ruhida kamol topishini istaydigan davlat.

### Tashqi siyosatda muhim tashabbuslar ilgari surildi

Yangi O'zbekiston keyingi yillarda milliy, mintaqaviy va jahon miqosida yoshlar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ezuq tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda.



BMT Bosh Assambleyasi, MDH, SHHT, IHT, TDT va boshqa tuzilmalarda davlatlarning e'tiborini yoshlar masalasiga qaratishga doir eng ko'p takliflar aynan Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgani biz, yoshlarga juda katta ixtidor bag'ishlaydi.

2024-yilda ham davlatimiz rahbarining tashqi siyosiy konsepsiyasidagi eng muhim masalalardan biri “yoshlar huquqlarini himoya qilish va ushbu yo'nalishdagi hamkorlikni yanada kengaytirish” bo'lganini ta'kidlash kerak.

Prezidentimiz ushbu yil xalqaro miqosida 27 marotaba yoshlar masalasi haqidagi taklif va tashabbuslardan 12 tasini xorijiy safarlarda hamda 15 tasini xorijiy delegatsiyalar bilan uchrashuvlar doirasida bildirilgan takliflar:

**Xorijiy safarlar va davlat tashriflari doirasida bildirilgan takliflar:**

**birinchi,** 24-yanvar kuni Pekin shahrida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin bilan bo'lib o'tgan rasmiy uchrashuvda bildirilgan ikki davlat o'rtasida qo'shma Yoshlar innovatsiya forumini o'tkazishga doir taklif;

**ikkinchi,** 18-aprel kuni Dushanbe shahrida Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan bo'lgan tor doiradagi uchrashuvda bildirilgan ikki davlat o'rtasida yoshlar forumlarini muntazam o'tkazib borish, ta'lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga doir taklif;

**uchinchi,** 6-iyul kuni Shusha shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida bildirilgan Turkiy davlatlar tashkiloti shafeligida aniq fanlar bo'yicha Yoshlar turkiy olimpiadasi va Jahon turkshunoslar kongressini 2025-yilda O'zbekistonda o'tkazishga doir tashabbus;

**to'rtinchi,** 8-avgust kuni Oqo'rda qarorgohida Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan bo'lgan tor doiradagi uchrashuvda bildirilgan yoshlar siyosati va axborot maydonini shakllantirish sohasida yaqin hamkorlikni rivojlantirish hamda bu yo'nalishda kompleks hamkorlik dasturini tayyorlashga doir muhim tashabbus;

**beshinchi,** 9-avgust kuni Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvda bildirilgan “Markaziy Osiyo yoshlari kun tartibi — 2030” doirasidagi hamkorlik dasturlariga yosh avlodni keng jalb etish, Markaziy Osiyo ta'lim va akademik almashuv dasturini qabul qilish va yetakchi oliy o'quv yurtlarining diplomlarini o'zaro tan olish to'g'risidagi bitimni ishlab chiqish, iqtidorli talabalar o'qishi uchun o'zaro kelishuvlar asosida stipendiyalar ajratish, Toshkent shahrida birinchi Markaziy Osiyo ta'lim forumini o'tkazishga doir muhim tashabbuslar;

**oltinchi,** 12-noyabr kuni Boku shahrida COP 29 sammiti doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso bilan uchrashuvda bildirilgan O'zbekiston va YTTB o'rtasidagi hamkorlik strategiyasini amalga oshirish va uni yanada boyitish, ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga doir takliflarni alohida qayd etish o'rini.

**Mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy davlatlar rahbarlari, hukumat rahbarlari va xorijiy delegatsiyalar vakillari bilan bo'lgan uchrashuvlar doirasida bildirilgan takliflar:**

**birinchi,** 15-may kuni BMT Bosh kotibining o'rinbosari — Terrorizmga qarshi kurash bosh-

davlatlararo kengashning birinchi majlisidagi muloqotda madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, yoshlar va axborot siyosati, sport sohalarida faol almashinuvlarni davom ettirish, turli sohalarida yoshlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish dasturlarini ishlab chiqishga doir tashabbuslar;

**oltinchi,** 15-sentabr kuni Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols bilan tor doirada bo'lib o'tgan muzokarada mas'ul idoralar darajasida talab yuqori bo'lgan sohalarida o'zbekistonlik mutaxassislarni tayyorlash va Germaniyaga yuborish bo'yicha amaliy hamkorlik “yo'l xaritasi”ni ishlab chiqish, Germaniya oliy ta'lim muassasalarining fakultet va filiallarini ochish uchun O'zbekistonda barcha sharoitlarni yaratish, Germaniyaning dual ta'lim tizimini O'zbekiston hududlarida keng joriy etish bo'yicha ilgari surilgan dolzarb tashabbuslar shular jumlasidan.

Shuningdek, davlatimiz rahbari xalqaro uchrashuvlar doirasida yoshlar turizmini rivojlantirish, yo'l qurilishi sohasida kadrlar almashish, yoshlar madaniy haftaliklar o'tkazish, ulami radikalizm g'oyalari ta'siridan asrab-avaylashga qaratilgan 10 dan ziyod taklifni ilgari surgani mamlakatimiz va hamkor davlatlar yoshlari o'rtasida samimiy muloqot o'rnatilishi, dunyo miqosida yoshlarni o'ylantirib kelayotgan muammolar yuzasidan davlatlar o'rtasida yagona pozitsiya shakllanishiga xizmat qilmoqda. Quvonarlisi, yangi O'zbekiston tomonidan bildirilgan barcha taklif va tashabbuslar dunyo davlatlari tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanmoqda!

### Eng muqaddas burch

2024-yilda mamlakatimiz ilk bor Jahon yoshlar festivaliga mezbonlik qildi. Bu natija ham O'zbekistonga yuksak e'tibor namunasi, desak to'g'ri bo'ladi. Festival doirasida yurtimizda 92 mamlakattan 700 nafardan ziyod yosh, 20 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotdan rahbar va mas'ul xodimlar keldi. Ular O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini, jumladan, yoshlar tadbirkorligi uchun davlat tomonidan berilayotgan kafolalar paketi, ijtimoiy siyosat, oliy ta'lim tizimi, yoshlarning xorijida tahsil olishi uchun yaratilgan noyob tizim va amaliyotlarni juda yuksak e'tirof etdi. Bu e'tirof chinakamiga yurtimizda yoshlar siyosati boshqalarga o'nak darajada ekanining amaliy ifodasi bo'ldi deb bemalol aytish uchun barcha asoslar yetarli.

“Yoshlar taraqqiyoti indeksi”ga ko'ra, O'zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ushbu e'tiroflar va erishilayotgan yuksak natijalarning ortida ikki muhim omil, ya'ni:

**birinchi muhim omil:** eng avvalo, yoshlarni qadrlaydigan va ularni hammadan ham ko'proq o'ylaydigan Prezidentimiz boshchiligidagi uzoqni ko'zlab, xalqimiz bilan maslahatlashgan holda yuritilayotgan oqilona siyosat;

**ikkinchi muhim omil:** amalga oshirilayotgan islohotlar va o'zgarishlar jarayonidan rozi bo'layotgan xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning qo'llab-quvvatlovi va ertangi kunga ishonchi turibdi, desak haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Ayni vaqtda yil yakuniga qadar kambag'allik darajasini 9 foizdan pasaytirishdek ulkan maqsad oldimiza turibdi. Bu ulug'vor maqsadlarga, avvalo, yoshlarda tashabbuskorlikni uyg'otish, ularning iqtisodiy loyihalarida hamda tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ishsizlikdan himoya qilish, ijtimoiy huquqlarini kafolatlash orqali erishish mumkin.

Joriy yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti 6,3 foiz o'shib, 111 milliard dollardan ko'paydi, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasiga 38 milliard dollar investitsiya kirib keldi, eksport hajmi esa 26 milliard dollardan oshdi. Mana shunday yuksak iqtisodiy natijalarning bardavoskorligini saqlash shu yurtimiz barcha fuqarosi, ayniqsa, yoshlarning iqtisodiy tashabbuskorligi, ma'naviy barkamolligi hamda yurt taraqqiyotiga befarq bo'lmashiga bevosita bog'liq.

Xulosa o'rinda aytadigan bo'lsak, “Yangi O'zbekiston yoshlari” degan sharafli nomga har tomonlama munosib bo'lgan holda yaratilayotgan imkoniyatlarga shukronalik hissi bilan yashash va mehnatkash xalqimizni rozi qilish, yangi O'zbekistonning porloq istiqbolli yo'lida tinmay mehnat qilish shu aziz yurtning barcha farzandlari uchun eng muqaddas burchdir!

Yurtimizda ichimlik suvni isrof qilish holatlarining aksariyati hisoblagich o'rnatilmagan iste'molchilar hissasiga to'g'ri keladi. Qonunchilikka asosan, suvni hisobga olish asbobi mavjud bo'lmagan holatlarda suv ta'minoti xizmatlari uchun aholi iste'molchilariga belgilangan tariflarga 1,5 orttiriluvchi koeffitsiyentni qo'llash yo'li bilan hisob-kitob amalga oshiriladi.

## Dolzarb mavzu

Yakuniga yetib borayotgan yil mamlakatimizning barcha soha va tarmoqlari uchun jiddiy islohotlar, yangi loyihalar va o'sish ko'rsatkichlariga boy, barakali davr sifatida tarixda qolmoqda. Amaliy natijalar bevosita xalqning hayoti, turmush tarzida aks etayotgani qilingan ishlariga tutiladigan asosiy ko'zgidir. Biz bugun aholini ichimlik suv bilan ta'minlash borasidagi harakatlarni sarhisob qilar ekanmiz, yil anchagina samarali bo'lgani ko'zga tashlanadi.

# ICHIMLIK SUV TA'MINOTI

## joriy yilda 80 foizdan oshdi

orqli bularga yechimlar beriladi. Masalan, 2017-2024-yillar mobaynida jami 6350 ta obyektga qurilish ishlari olib borilib, 36 ming 797,2 kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari qurildi hamda rekonstruksiya qilindi. Ushbu ishlar natijasida 13,2 million odamning ichimlik suv ta'minoti yaxshilanib, 7,8 million aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlandi.

Buning uchun davlat byudjeti va xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan qator loyihalar amalga oshirilmog'na. Xususan, Xonobod — Andijon magistral ichimlik suv quvurining 2-bosqich 2-qismi qurilishi natijasida Andijon shahridagi 372 ming aholining ichimlik suv ta'minoti yaxshilanadi. Fransiya Moliya vazirligi mablag'lari hisobiga "Yakkabog" — Qarshi magistral suv quvurlarini qurish va mavjud suv taqsimlash inshootlarini rekonstruksiya qilish", Arab muvofiqshartlash guruh mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan "Namangan viloyatining Zarkent, Hodikent, Iskovot, Buloqbohi, Yoshlik shaharchalari va Namangan shahri suv ta'minoti yaxshilash", Jahon banki mablag'lari hisobidan "Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahri ichimlik suv va oqova suv tozalash inshootlari va oqova tizimlarini rekonstruksiya qilish" kabi qator loyihalar davom etyapti. Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 18-oktabrdagi tegishli qaroriga muvofiq, Toshkent shahri ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimlarini yaxshilash maqsadida Fransiyaning "SUEZ International SAS" kompaniyasi ishtirokida umumiy qiymati 218,8 million yevro bo'lgan yirik loyiha amalga oshirilmog'na. Uning doirasida shaharda "aqlli" boshqaruv tizimi joriy etilishi ko'zda tutilgan. Bu loyihalarning har biri minglab oilalarning toza suv ta'minotini yaxshilashga qaratilgan.

Qolaversa, 2030-yilda yurtimiz aholisining ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasini 90 foizga yetkazish maqsad qilingan. Bu borada hududlar kesimida yangi loyiha takliflari ishlab chiqilmog'na. Nafaqat yangi inshootlar qurish, balki eski inshootlarni ham qayta tiklash va rekonstruksiya qilish ko'zlangan. Jumladan, 2025-2030-yillarda respublika bo'yicha qariyb 45 ming kilometrdan ziyod ichimlik suv tarmog'i hamda 1,8 mingta inshoot qurilishi va rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilaypti.

Mamlakatimizda odamlarning qimmatbaho resursiga mas'uliyatsiz munosabatini o'zgartirish, iste'molchilarda suvdan tejankor va oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish zarurati bor. Afsuski, bu boradagi targ'ibotlar ham doim kutilgan natija bermaypti. Shu bois, suv tariflarini shakllantirishda iste'molchilar bilan bozor munosabatlarga o'tish zarurati yuzaga keldi. Amaliyot ko'rsatadiki, aholining suvni tejashi ko'p jihatdan har bir iste'molchining to'lovlarni kamaytirishdan shaxsiy manfaatdorligiga bog'liq.



### Suv tekin emas!

Bugungi global vaziyat odamlarda ichimlik suvga munosabatni o'zgartirish, undan oqilona foydalanishga qaratilgan jiddiy choralar ko'rishni ham talab etmoqda. Afsuski, ko'plab shaharlarda aholining suvni tejash muammosiga passiv munosabati mavjud. Ko'p hollarda suvdan foydalanishda hamon isrofgarchilikka yo'l qo'yilmog'na. Ba'zilar mashinasini toza ichimlik suvda yuvayotgani, boshqalari salqinlik yaratish maqsadida oftobda issiq asfaltni ichimlik suv bilan "sug'orish" juda achinarli. To'g'ri, bu odatlar azaldan singgan, ariflarni to'ldirib oqib turgan suv bunga imkon bergan, ichimlik suv muammosi hali global miqyosda gapirilmagan vaqtlarda tekislikkorlikka e'tibor qaratilmagan bo'lishi mumkin. Biroq bugun vaziyat unday emas. Jahonda jiddiy qurg'oqchilik, suv taqchilligi boshlangan. Suv manbalari tobora qisqarib boryapti. Bunga sabablar ko'p, albatta. Ular orasida, afsuski, insoniyat ushbu bebaho ne'matdan xo'jasizlarcha foydalanayotgani ham yo'q emas.

Mamlakatimizda odamlarning qimmatbaho resursiga mas'uliyatsiz munosabatini o'zgartirish, iste'molchilarda suvdan tejankor va oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish zarurati bor. Afsuski, bu boradagi targ'ibotlar ham doim kutilgan natija bermaypti. Shu bois, suv tariflarini shakllantirishda iste'molchilar bilan bozor munosabatlarga o'tish zarurati yuzaga keldi. Amaliyot ko'rsatadiki, aholining suvni tejashi ko'p jihatdan har bir iste'molchining to'lovlarni kamaytirishdan shaxsiy manfaatdorligiga bog'liq.

Ya'ni suvni qancha kam ishlatsa, shuncha kam to'lov qiladi.

Yurtimizda jami 11 ming 63 ta suv olish inshooti mavjud. Ichimlik suvning asosiy xazinalari esa Amudaryo va Sirdaryo hamda unga tutash yer osti chuchuk suv manbalari hisoblanadi. Mamlakatimizda bir yillik suv sarfini 100 foiz deb oladigan bir yillik suvning 87 foizi qishloq xo'jaligida, 9 foizi energetika va baliqchilik, qolgan 4 foizigina ichish uchun ishlatiladi. Shunday sharoitda suvga nisbatan eng arzon vositalardan biri sifatida qarash chinakam fojia.

Xalqimizda "suv tekin" degan ibora keng ommalashgan. Afsuski, buni ichimlik suvning o'ziga nisbatan qo'llaydiganlar ham topiladi. Dunyoda suv taqchilligi haqida bong urilayotgan bir paytda odamlarimiz orasida hammondada suvni soatlab salqinlatadiganlar uchrab turishi anchayin tashvishli. Buning uchun ular yillar davomida suvga hech qancha to'lov qilmagan, chunki narxlar juda arzon, hatto ko'p xonadonlarga ichimlik suvni taqsimlash maqsadida o'rnatilgan ichimlik suv ta'minoti xizmatlari uchun qancha suvni isroflayotgani haqida o'ylab ko'rilmagan edi. Natijada suvni tejagan ham, undan bemalol foydalanigan ham bir xil to'lov qilishi qanchalik adolatsiz!

Ammo suv narxini ko'tarishdan maqsad tejankorlikni oshirishdangina iborat emas! Ushbu zaruratga qator omillar, jumladan, markazlashgan ichimlik suv tannarxi va undan foydalanish uchun qonunchilikda javobgarlik belgilangan. Ushbu harakat fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining

xarajatlari yuqoriligi sabab bo'ldi. O'tgan yilgi tahlilarga ko'ra, yurtimiz bo'yicha o'rtacha 1 kub metr ichimlik suv ishlab chiqarish uchun 1312 so'm, 1 kub metr oqova suvni tozalash



uchun 753 so'm sarflanagan. Tariflar esa o'nggi 3 yildan buyon o'zgarayotgan natijasida o'rtacha hisobda 40 foiz oshgan tannarx xarajatlari hisobidan 960 milliard so'm qoplamasdan qolgan. Bu qo'shimcha qarz xarajatlarni keltirib chiqaradi, degani. Bundan tashqari, oxirgi uch yilda iste'molchilar soni 808 mingtaga oshgan. Demak, ularga ichimlik suv yetkazib berish yanada ko'proq mehnat va xarajat talab etadi. Ana shu xarajatlarning qarlanishi hisobiga tariflar har bir viloyat hududlarida turlicha belgilangan. Ayni paytda yurtimiz bo'yicha 1 kub metr ichimlik suvni yetkazib berish o'rtacha 2374 so'mmi, 1 kub metr oqova suv xizmatlarini ko'rsatish esa o'rtacha 1300 so'mmi tashkil etmoqda.

Suv uchun to'lov qimmatlashar ekan, odamlarda shaxsiy daxldorlik, mas'uliyat ham oshishi kerak. Chunki suvni isrof qilish faqatgina shaxsiy masala emas. Ayrimlar minib yurgan avtomobilini kuniga ikki marta yuvishini eshitib, hayron qoladi kishi. O'sha odam mashinani ariq suvida yuvmasligi tayin, ichimlik suvdan foydalanadi. Buning uchun qancha suvni isroflayotgani haqida o'ylab ko'rilmagan edi. Natijada suvni tejagan ham, undan bemalol foydalanigan ham bir xil to'lov qilishi qanchalik adolatsiz!

### Ahmad SUVONQULOV, "O'zsuvta'minot" AJ boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi

Avvalo, asosiy vazifamiz sifatida aholini ichimlik suv bilan ta'minlash ko'lamini oshirish qilib belgilab olganimiz shubhasiz. Doimiy harakatlar orqali bu ko'rsatkich yildan yilga oshib boryapti. Hozirgi kunda yurtimizda ichimlik suv bilan markazlashgan holda ta'minlangan jami aholi soni 28 million 587 mingga, shundan hisoblagichlar bilan ta'minlangan aholi soni esa 3 million 799 mingtaga yetgan. Joriy yil davomida "O'zsuvta'minot" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan 1625 million kub metr yoki o'rtacha kuniga 4859 ming kub metr ichimlik suv qayta ishlab chiqarildi.

Yirik islohotlar, loyihalar, katta ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, keyingi yetti yilda aholining ichimlik suv ta'minotini yaxshilashga 20 trillion so'mga yaqin mablag' yo'naltirilib, 2916 ta suv inshooti va 43 ming kilometrqa yaqin ichimlik suv tarmog'i tordildi. Natijada aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi 2017-yildagi 63 foizdan bugungacha kelib 80 foizdan oshdi. 2026-yilda bu ko'rsatkichni 88,9 foizga yetkazish rejalashtirilgan. O'tgan davr mobaynida 8 millionga yaqin aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanib, 14,5 million kishining ta'minoti yaxshilandi.

### Loyihalar ko'lamini katta

Suvni tejash, undan oqilona foydalanish faqat so'zda aytiladigan jarayon emas. Uni amaliyotda joriy etish uchun katta mablag', yangi loyihalar, zamonaviy yondashuvlar zarur. Ya'ni birgina eskirgan quvurlar orqali qancha suv yo'qotilishi, qishloq xo'jaligidagi eskicha sug'orish natijasida suv behuda sarf bo'lishini inobatga olsak, loyihalar



— Qo'shim Isom quyosh paneli o'rnatildi. Oyiga 300 kilovatt elektr energiyasini 1000 so'mdan sotib, 300 ming so'm daromad olayotgan ekan. Buni eshitib, men ham quyosh paneli o'rnatadigan korxonaga jo'nadim. Borsam, 3 kilovattli quyosh paneli 9 million 200 ming so'mga o'rnatib beriladigan bo'ldi. Qolgan 7 million so'm davlat hisobidan subsidiya asosida qoplanar ekan. Hammasini qo'shib hisoblaganda umumiy narxi 16 million 200 ming so'm bo'ldi. Qanday yaxshi, imtiyozdan foydalanay deb 3 kilovattli quyosh paneli o'rnatish uchun banka bordim. Baraka topsin, bank xodimlari ham yarim soat ichida kredit rasmiylashtirib berdi. Endi uch yil ichida har oy 335 ming so'mdan to'lab, kreditimni qaytarar ekanman. Uch yildan so'ng quyosh paneli to'liq foydaga ishlarkan deb o'yladim, — deydi nukuslik Dauletmurat Paxratdinov.

Haqiqatan, bugun xonadon egasi 1 kilovatt-soat elektr energiyasini davlatga 1000 so'mdan sotmoqda. Xonadonga 5 kilovatt quvvatli quyosh paneli o'rnatilsa, oyiga o'rtacha 750 kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. 4 kishilik xonadonda oyiga o'rtacha 400 kilovatt-soat elektr energiyasi iste'mol qilinsa, ortib qolgan quvvat xonadon egasiga oyiga 350 ming so'm daromad keltiradi.

Bu qurilmani o'rnatish juda oson va uzoq yillar texnik xizmat ko'rsatish talab etilmaydi. Chunki maxsus sinov laboratoriyalari tekshiruvdan o'tkazilgan holda o'rnatilishi sababli o'rtacha 20-25 yil davomida xizmat ko'rsatadi. Xonadon egasi elektr energiyasining ehtiyojidan ortgan qismini elektr tarmoqlari

## "Yashil" energiya



# TABIAT QUVWATI

## foydali daromad manbaidir

korxonasiga sotib daromad qiladi. Bunda jismoniy shaxslar hech qanday soliq to'lovi to'lamaydi.

Quyosh panellarini yuridik tashkilotlar ham o'rnatib, davlatga elektr energiyasi sotib foyda olmoqda. Masalan, beruniylik tadbirkor Ruslan Kazakov quyosh panellarini daromad manbaiga aylantirib ulgurdi. Hozir u davlat ajratgan 1,5 gektar yerda 850 kilovattli quyosh panellari o'rnatib, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyatiga sotish orqali oyiga 120 million so'mgacha daromad topmoqda.

Bundan tashqari, tadbirkor o'ziga tegishli savdo do'konida ham 20 kilovattli quyosh panellarini o'rnatgan. Buning natijasida "Komil-Ruslan" mas'uliyati cheklangan jamiyatining elektr energiyasiga ehtiyoji to'liq quyosh paneli hisobidan qoplanib, ortgan energiyani sotish yo'lga qo'yilgan.

Aholi sotgan elektr energiyasi uchun mablag' davlat tomonidan har oy "Solig" mobil ilovasi orqali fuqarolarning bank plastik kartasiga o'tkazib beriladi. "Aqlli" elektr hisoblagichlar quyosh panellari orqali olingan elektr energiyasi har oyda qancha sotilganini aniq-tinchi hisoblab beradi. Jarayonni telefonida o'rnatilgan maxsus ilova orqali onlayn kuzatib borish mumkin.

Qoraqalpog'istonda o'tkazilayotgan targ'ibot-tashviqot tadbirlari natijasida bugungacha qadar 1537,5 kilovatt quvvatdagi quyosh panellari ishga tushirildi. Jumladan, ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralari 295 kilovattli, tadbirkorlik subyektlariga tegishli bino va inshootlarning tomi 688,4 kilovattli va xonadonlarda 558,1 kilovattli quyosh paneli, 15 ming 211 ta uyda tejankor lampa, 2305 tasida gaz taqsimlash uskunalari o'rnatildi.

Yil sayin quyosh panellari narxi pasayib bormog'na. Bu ularni oddiy iste'molchi ham bemalol o'z xonadonida o'rnatishi mumkinligini anglatadi. Quyosh panellarini o'rnatish orqali an'anaviy energiya manbalari talab kamayadi. Eng muhimi, har bir iste'molchining o'z energiya manbai bo'ldi. Oilaning energiya to'lovi uchun xarajati kamayadi.

Shu o'rinda mamlakat bo'yicha quyosh panellari ishlab chiqarish birinchilardan bo'lib Qoraqalpog'istonda yo'lga qo'yilayotganini aytib o'tish joiz. Prezidentimiz joriy yil 19-avgust kuni tashrihi davomida "Nukus Electroapparat" qo'shma korxonasidagi direktori loyiha bilan yaqindan tanishgan edi.

— Korxonamiz 2017-yilda ishga tushirilgan. Oldin korxonamizda elektr energiyasi tarmog'i uchun kuchlanish qurilmalari ishlab chiqarilardi. Joriy yil iyundan boshlab korxonamiz 10,5 million AQSH dollari qiymatidagi investitsiya

kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. O'rtacha 100 million kub metr tabiiy gaz tejiladi, havoga 180 ming tonna karbonat angidrid gaz tarqalishning oldi olinadi.

Bundan tashqari, Qorao'zak tumani "Qoybaq" OFY hududida umumiy qiymati 220 million dollarlik "Nukus-2" loyihasi ham amalga oshirilib, 26 ta shamol turbinasi generatorlari o'rnatildi. Loyiha to'liq ishga tushirilgandan so'ng har yili 794 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishiga imkoniyat yaratiladi. Bundan tashqari, "ACWA Power" kompaniyasi Qo'ng'iro't tumanida umumiy quvvati 2000 megavattli shamol elektr stansiyasini qurish bo'yicha yana 4 ta loyihani amalga oshirishi belgilangan.

Bugun mamlakatimizda "yashil" energiyadan foydalanish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Joylarda quyosh panellari o'rnatilish holati va "Yashil energiya" axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlar bo'yxona xodimlari tomonidan joylarga chiqqan holda o'ranganilmog'na. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yxona boshqarmasi xodimlari hududidagi oilaviy korxonalaridan birida o'rnatilgan 80 kilovatt quvvatli quyosh panellarining samaradorligini o'rgandi. Ushbu muqobil energiya manbalari tomonidan bugungacha qadar 6 ming kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarilgan.

Muqobil energiyadan foydalanish — davr talabi. Har tomonlama maqbul bu tizimning ommalashuvi davlatga ham, tabiatga ham, aholiga ham foydali bo'lmoqda. Texnologik taraqqiyot va energiyaga talabning oshishi yaqin yillarda quyosh panellarini eng ommabop muqobil energiya ishlab chiqarish manbaiga aylantirishi tayin.

### Minajatdin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bugungi o'quvchilar "raqamli avlod" o'laroq kun bo'yi ekranlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Raqamli texnologiyalarni ta'limga kiritish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'qituvchilarning rolini ham o'zgartiradi. Endilikda ular faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning mustaqil o'rganish jarayoniga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi ham bo'lib qolmoqda.

2024-yil 24-dekabr, 260-son

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz\_official

yuz.uz\_news

yuz

Yangicha yondashuvlar

# RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR

## TA'LIM SIFATI YUKSALISHIDA MUHIM OMIL

Joriy yil 20-noyabr kuni davlatimiz rahbari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida ta'lim sifatini yanada oshirish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosati izchil davom ettirilishini ta'kidladi.



Abdivali SHAMSHIYEV, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va jarayonni takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynamoqda. Mamlakatimiz "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida ta'lim sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish yo'lida katta qadam tashlamoqda. Maktablar va oliy ta'lim muassasalari sinflari hamda auditoriyalari endi ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan. Ular o'quv jarayonini interaktiv, shaffof va qiziqarli qilishda yordam bermoqda. Masalan, smart doskalar, kompyuterlar, iPad va boshqa o'quv vositalari yordamida o'quvchilar hamda talaba yoshlar ma'lumotlarni tezroq o'zlashtiradi, bu jarayon o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondiradi.

Hozir ta'limni raqamlashtirish global miqyosda muhim tendensiyaga aylandi. Yangiliklarni qabul qilish, texnologiyalarni joriy etish va raqamli qurilmalarni faol ishlatish orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish mumkin. Bunda bir necha muhim aspektlarga e'tibor qaratsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Raqamlashtirish ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishni anglatadi. Misol uchun, elektron darsliklar, onlayn platforma va resurslar, videoleksiya va interaktiv o'quv qurilmalari talabalarning yangicha ta'lim olish

usullarini samarali ravishda o'zgartirmoqda. Bu vositalar talabalar ma'lumotni osongina olish, qayta takrorlash va o'z ustida ishlash imkonini beradi. Shuningdek, raqamlashtirish talabalarning individual o'qish usullarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Talabalar o'z moslashuvchanligini va ta'lim olish sur'atini belgilash imkoniga ega. Bundan tashqari, onlayn kurslar va webinarlar orqali har qanday joydan ta'lim olish imkonini beradi, bu esa geografik cheklavlarni bartaraf etadi.

Raqamli ta'lim platformalari ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun samarali vositadir. Ushbu ma'lumotlar asosida ta'lim samaradorligini baholash, zaif jihatlarni aniqlash va ta'lim jarayonini yaxshilash bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqiladi.

Ustozlar va talabalar orasidagi aloqani osonlashtirishda ham raqamlashtirish muhim. Bundan tashqari, ustoz-shogird an'analari yanada zamonaviy tus oladi. Onlayn platforma orqali talabalar ustozlar bilan tez aloqa o'rnatishi, savollar berishi, fikr almashishi mumkin. Shuningdek, o'qituvchilar o'quv jarayonini samarali boshqarish, talabalarning muvaffaqiyatlarini kuzatish va individual yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamlashtirish jarayonidagi muvaffaqiyat uchun kerakli resurslar, tayyorgarlik va moslashish muhim ahamiyatga ega. Talabalar va ustozlarga raqamli qurilmalardan samarali foydalanish uchun maxsus treninglar, seminarlar va webinarlar tashkil etish zarur. Bu boradagi muammolarni hal qilishda ta'lim muassasalari, davlat organlari va texnologik kompaniyalar o'rnatidagi hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

Ilmiy manbalarga ko'ra, raqamli ta'lim platformalari ta'lim samaradorligini yuksaltiradi, vaqtni tejaydi va o'quvchilarning faolligini oshiradi. Raqamli ta'lim platformalarining eng muhim afzalliklaridan biri shundaki, ular o'quv jarayonini shaffof va ochiq qiladi. Bunday platformalar o'quvchilar dars materiallariga kirishini osonlashtiradi, shuningdek, ularni ko'rib chiqish va mustaqil o'rganish imkonini beradi.

Bu boradagi boshqa ilmiy manbalari sifatida, masalan, Xalqaro ta'lim innovatsiyalari markazi tomonidan chop etilgan maqolalar ham keltirilishi mumkin. Unda raqamli ta'limning pedagogik jarayonlarga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Bu kabi tadqiqotlar raqamlashtirish orqali ta'lim tizimiga qanday yangiliklar kiritilayotgani va o'qitish uslublarining qanday



o'zgarayotgani haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Yuqoridagi fikrlar va nazariyalar orqali ko'rinib turibdiki, ta'limni raqamlashtirish o'quv jarayonini samarali tashkil etish, interaktiv va individuallashtirish orqali o'qituvchi va o'quvchilarning uchun qulayliklar yaratadi.

Raqamli ta'lim platformalari ham katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. O'quvchilar bilimlarni onlayn olishi, uy vazifalarini mustaqil ravishda bajarishi va darslar oraliqida o'zini sinab ko'rishi mumkin. Bu jarayon darslarda qatnashmaslik holatlarini kamaytiradi, o'quvchilarning faoliyatini yaxshilaydi hamda o'qituvchilarning kundalik yukini yengillashtiradi. Talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mamlakatimizda bu boradagi ishlar xalqaro tendensiyalar bilan uyg'unlashayotganini alohida e'tirof etish kerak. Bugungi o'quvchilar "raqamli avlod" o'laroq kun bo'yi ekranlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Raqamli texnologiyalarni ta'limga kiritish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'qituvchilarning rolini ham o'zgartiradi. Endilikda ular faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning mustaqil o'rganish jarayoniga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi ham bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimini "raqamli avlod" ehtiyojlariga moslashtirish zamonaviy jamiyatning talabalariga javob beradigan bilimdon, malakali mutaxassislarini tayyorlashga imkon yaratadi.

O'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan interfaol ta'lim jarayonida o'qituvchilar asosiy rol o'ynashda davom etmoqda. O'qituvchining obro'-e'tibori va faoliyati samaradorligi nafaqat dars mazmunini bilish darajasi va pedagogik



mahoratiga, balki o'ziga xos mavzularni to'plash, qayta ishlash hamda o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan qay darajada foydalanishiga ham bog'liq. Ya'ni raqamli asrdagi ta'limni qayta ko'rib chiqish, ta'lim paradigmasini o'zgartirish kerak, chunki talabalar endi an'anaviy usullarda o'rganishni xohlamaydi va o'qituvchilar ham bu tarzda dars bera olmaydi.

Prezidentimizning 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, webinar, onlayn, aralash ta'lim kabi texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish singari vazifalar belgilab berilgan. Ana shundan kelib chiqib, keyingi



yaillarda oliy ta'lim muassasalarida ham bu borada keng ko'lami ishlar qilinmoqda. Buning amaliy ifodasi oliygo'harlarda ko'rinmoqda. Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetida HEMIS OTM axborot tizimi joriy etildi. Tizimni joriy qilish, o'quv jarayonini tashkil etishda talabning mustaqil ta'lim olishidan tashqari, har bir fan yoki laboratoriya mashg'ulotini o'zlashtirish ko'rsatkichiga barcha jarayonlar samaradorligi oshirishga erishildi. Ushbu tashabbuslar, bir so'z bilan aytganda, raqamli texnologiyalar asosida ta'lim muhitini loyihalash talabalarni axborot bilan ta'minlash, sifati ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda vaqt va makon cheklavlarini chetlab o'tishga yordam bermoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibi joriy qilingan.

Raqamli texnologiyalar orqali axborot almashish tezligi va ishonchligi ortmoqda, bu esa davlat idoralari, korxonalar va ta'lim muassasalarida ish jarayonlarini soddalashtiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va stressni kamaytiradi. Bu nafaqat ta'lim jarayoni sifatini oshirishga, balki umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston ham bu yo'lida izchil rivojlanib, ta'limni raqamlashtirish orqali milliy iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda muhim o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Raqamli ta'lim texnologiyalari orqali ta'lim jarayonining interaktivligi oshadi. Bu o'qituvchilarning faqat bilim berish vositasi emas, balki o'quvchilarning mustaqil bilim olishiga ko'maklashadigan, ularni qo'llab-quvvatlaydigan vositaga aylanadi. O'qituvchining roli endilikda gid yoki mentorga aylanmoqda, bu esa ularning ta'lim jarayonida an'anaviy ma'ruza-chilikkandan chekinib, o'quvchilarni mustaqil izlanishga, texnologik vositalardan samarali foydalanishga yo'naltirishni anglatadi.

Sohada "avtonom ta'lim" tushunchasi asosiy g'oyaga aylanayotganini ham ta'kidlash kerak. Bu ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsiy qiziqishlari va o'quv sur'ati asosida o'qishni boshqarishi mumkin bo'lgan, texnologik vositalar orqali ta'limni individualizatsiya qilish imkoniyatidir. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yangi shaklini yaratadi. Virtual reallik (VR), sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (BigData) va boshqa ilg'or texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish orqali ta'limni yanada qiziqarli, moslashuvchan va interaktiv qilish mumkin. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning bilim darajasini samarali baholash va diagnostika qilish imkoniyatini ham kengaytiradi.

Ta'limni raqamlashtirish faqatgina texnologiyalarni joriy etish emas, balki yangi yondashuv, yangi imkoniyatlarni ochishdir. Raqamli platforma orqali bilim olish, talabalarning faolligini kuchaytirish va muallimlarning ijodiy potentsialini rivojlantirish, samaradorlikni oshirishga erishiladi. Ushbu jarayonda biz barchamiz — talabalar, pedagoglar va ta'lim muassasalari birgalikda ish olib borishimiz, albatta, kutilgan natijaga etadi.

## Mulohaza



Jamiyat yetuk, har tomonlama kamol topgan, o'zida butun ijobiy, olijanob fazilatlarini birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Tarbiyasi og'ir, ma'naviyat qashshoq yoki ma'naviyatdan mahrum odamdan biror ezigulik kutish mumkin emas. Chunki u yaxshilik va ezigulik haqida umuman o'ylamaydi. Atrofga va hatto ota-onasi, qarindosh-urug'lari taqdiriga ham befarq, loqayd qaraydi. Tarbiyasi, ma'naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi. Shuningdek, kelgusi hayoti va turmushini farovon qilishga intiladi.



Muhiddin PO'LATOV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining shu yil 20-noyabrda majlisida nutq so'zlar, jumladan, bunday dedi: "Yoshlarimiz ong-u tafakkurida milliy g'urur bilan birga umumbashariy qadriyatlariga hurmat hissini

# BOLA QACHON JAMIYAT FARZANDIGA AYLANADI?

amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir", deya ta'kidlaydi.

Inson o'z tabiatiga zid emas, balki mos yashashi lozim. Shunday ekan, inson tabiati tushunchasi ham, ma'naviyat tushunchasi ham "Insonning yashashdan maqsadi nima?" degan masalaga yechim bilan bevosita bog'liq.

Xalqimizning asriy turmush tajribasi asosida shakllangan kundalik qarashida bu savolga quyidagicha javob beriladi: "Insonning yashashdan maqsadi egzu ishlar qilib, munosib farzandlar tarbiyalab, yaxshi nom qoldirishidir". Mazkur sodda va nihoyatda dono fikrdan kelib chiqib, ma'naviyat insonning ezigulikka yo'naltirilgan maqsadlariga erishish uchun xizmat qiladigan orzu-havaslari, aql-zakovati, bilimlari, amaliy faoliyati asosida yotgan irodasi, deiysh mumkin.

Bola tabiat farzandi sifatida dunyoga keladi. Uni jamiyat farzandiga aylantirish uchun insondan, ayniqsa, ota-onasidan juda ko'p mehnat talab qilinadi. Ba'zilar bolamni boqsam katta bo'ladi deb tarbiyasiga e'tibor bermaydi. Agar bolani faqat boqib, tarbiyasiga e'tibor berilmasa, u inson qiyofasidagi odam bo'ladi. Lekin haqiqiy inson darajasidagi ko'tarila olmaydi.

Zurriyotini yaxshi ko'rish, asrab-avaylash barcha jonli mavjudot uchun xos xususiyat. Hatto hayvonlari parrandalar ham bolasi tug'ilganidan uni parvarishlashga kirishadi. Inson ham bu xususiyatdan xoli emas. Biroq tarbiyali bola yanada sevimli bo'ladi: Hazrat Alisher Navoiy "Odam borki, odamlarning naqshidur, Odam borki, hayvon undan yaxshidir", deganda tarbiya odamlarning yaxshisini shakllantirishiga ishora qiladi.

Bugun bolalarga yotadigan hazar, yaxshiga havas qilish xususiyatini singdirishimiz, o'zimizga namuna bo'lishimiz kerak. Qolaversa, jamiyat

oldida mas'uliyatni his etish, vatanni sevish, atrof-dagilariga hurmat-ehitromda bo'lishni o'rgatishimiz zarur.

Sohibqiron Amir Temur ham farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targani bejiz emas. Chunki davlatning qudrati sog'lom fikrli, axloq-odobli, xalq, millat, vatan taqdiri uchun jonfido insonlar bilandir. Mamlakatimizda oilani har tomonlama mustahkamlash, oila va ta'lim tizimida yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash, aholi salomatligi borasidagi muhim ishlar negizida ham aynan shu g'oya yotibdi.

Oilada farzand hayotida sinalgan tarbiya metodlaridan biri namuna ko'rsatishdir. Bobobuvi, ota-onasi, atrof-dagi kattalarning xatti-harakati, yurish-turishi, muomalasi, o'zini tutishi, jamiyatga, tabiatga munosabati namuna sifatida juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bolaga aqliy-axloqiy, estetik, diniy, mehnat tarbiyasi asoslari ota-onasi bilan singdirib boriladi.

Ota-onasi farzandi oldida aql-zakovati, muomalasi, kiyinishi, shirins'o'zligi, qat'iyati, rostgo'yligi, mehnatsevarligi, oila yuritishda adolatparvarligi, ilmparvarligi bilan namuna bo'lmog'i zarur. Bola fe'l-atvoriga ota-onaning o'zaro janjali, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitiga salbiy munosabati, yolg'on so'zlashi, qat'iyatsizligi, kiyinishi, ro'zg'or yuritishidagi pala-partishligi, mehnatni sevmasligi tezda salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ba'zi ota-onalar farzandi sodir etgan xato, kamchilik, beodoblikka maktab va o'qituvchilarni aylaydi. Bu, albatta, noto'g'ri. Chunki farzand uchun ilk maktab oila bo'lsa, birinchi ustoz ota-onadir. Farzand ko'z ochib, ota-onasini ko'radi, doim ular bilan birga. Ota-oni ilmiy va tarbiyali bo'lsa, bu fazilat o'z-o'zidan farzandga o'tadi. Agar ota-onada tarbiya, odob, madaniyat bo'lmasa, albatta, buni farzanddan ham kutish qiyin. Shuning uchun ham ba'zi ruhshunoslar



"Farzandingizni emas, o'zingizni tarbiya qiling. Shunda farzandingiz ham tarbiyali bo'ladi", deydi. Insonda odob va tarbiya bo'lmasa, ta'lim olish masalasi juda qiyin. Ilmi bo'lsa-yu, odob, tarbiyasi bo'lmasa, dunyoda eng xavfli va xatarli insonga aylandi. Chunki u odamlar boshiga turli kulfat va balalar keltirishi mumkin.

Ota-onasining bir-biriga nisbatan yuksak axloqiy munosabatini ko'rgan, bilgan bola kelgusida oila qurganda ham turmush o'rtog'i bilan shunday yashashga tayyor bo'lib boradi. Hayot ilmda ona qiz bola uchun, ota esa o'g'il bola uchun murabbiydir. "Arqog'ini ko'rib bo'zini ol, onasini ko'rib qizini ol", deb bejiz aytilmaydi.

Ba'zi ota-onalar farzandi kelajagini faqat moddiy ta'minlashdan iborat deb biladi. Shuning uchun turli yo'llar bilan moddiy to'plashga harakat qiladi, ochko'zlik kasalligiga mubtalo bo'ladi. Inson jismi-jonidagi kasalliklarni davolash mumkin, lekin bu kasallikni davolash juda murakkab. U insonni odamiylikdan mahrum etadi, turli jinoyatlarga, g'ayriaxloqiy xatti-harakatlarga undaydi, el-yurt ichida obro'sizlantiradi. Bunday boylik farzandga baxt emas, baxtsizlik keltiradi.

Oilada farzandni tejakorlikka, tadbirkorlikka, tashabbuskorlikka o'rgatish, dunyoviy ilmlar va hayot ilmidan voqif etish, kasb-hunar sirlarini qunt bilan egallashi uchun shart-sharoit yaratish hayot so'qmoqlarida adashib qolmaslik va xavon yo'ldan borishda yordam beradi.

"Temur tuzuklari"ni o'qir ekanmiz, Sohobqironning ko'plab ilmlar bilimdoni bo'lganiga ishonch hosil qilamiz. Amir Temurning ta'lim-tarbiyaga doir qarashlarini oila va oilaviy tarbiya, mehnat, kasbiy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, do'stlik, insonparvarlik va nafosat tarbiyasi turkumlariga bo'lish mumkin. Uning qarashlarida oila jamiyat va mamlakatning asosi ekan ta'kidlangan. Oilaning mustahkam bo'lishida mas'uliyat oila boshlig'i zimmasida deb biladi Sohobqiron. Shu bois, o'g'illari, nabiralari va yaqinlarini uylantirmoq tashvishida kelim izlamog'ga e'tibor bergani, bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rganini qayd etadi. Sohobqiron kelim bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirgan. Xos odamlari orqali sog'liq-salomatligini, jismoniy kamolotini aniqlagan. Kelim bo'lmish nasl-nasabi toza, odob-axloqli, sog'lom va barkamolligi bilan barcha quvurlardan xoli bo'lsagina, el-yurtiga katta to'y-tomosh berib, kelim qilgan.


Oila tarbiyasi maskani bo'lib, shaxsning kamol topishi ota-onaning o'z burch va vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liq. Oiladagi bu munosabat uning mustahkamligi, jamiyat farovonligiga erishish omilidir.

Zotan, har bir kishi oila va jamiyat dialektik birlik ekanini hech qachon unutmasligi va ularning doimiy jipsligi uchun qayg'urishi, g'amxo'rlik qilishi lozim. Bu tushunchani barcha ziyolilar yoshlar ongi va tafakkuriga singdirishi muhim vazifadir.

**Ha, akademik Bo'riboy Ahmedov nafaqat o'z oilasi, balki butun o'zbek xalqi shoni va sha'nini, tarixini tiklagan mard o'g'il, fidoyi farzand ekanini isbotladi. Uning jasorati, shijoati va yuksak bilimi tufayli xalqimizning asrlar to'fonida izsiz yo'qolgan tarixiy adolati tiklandi.**

## Akademik Bo'riboy Ahmedov tavalludining 100 yilligi

1995-yilda olimning "Amir Temur" tarixiy romani xalqimiz e'tiboriga havola qilindi. Kitobxonlar uni juda sevib o'qidi va bu asar mashhur bo'ldi. Muallif O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolariga qabul qilindi. Shunday qilib Yozuvchilar uyushmasi tarixida birinchi marta tarixchi olimga uyushma a'zosi guvohnomasi berildi.



# XALQIGA FIDOYI O'G'IL VA CHIN DO'ST EKANINI ISBOTLAGAN OLIM

O'zligini izlagan inson vatani tarixiga daxldor barcha ma'lumotni katta ishtiyoq bilan o'rganadi. Biz ham talabalik davrida darslik, qo'llanmalardagi ma'lumotlarga qanoatlanmay, tarixchi ustozlarimiz bilan bahsu munozara qildik. Chunki yurtimiz mustaqilligining ilk yillarida matbuot sahifalarida tarixiy izlanishlarga oid yangi ma'lumotlar paydar-pay e'lon qilinardi. Ziyrak tengdoshlarimiz tarixning yangi sahifalaridan misol keltirardi. Aksariyat maqolalar tarixchi, sharqshunos-manbashunos olim, tarix fanlari doktori, professor, akademik Bo'riboy Ahmedovga tegishli bo'lardi.

O'tyurak o'g'il-qizlar olimning achchiq kinoya va jonkuyarlikka yo'g'rilgan mulohazalaridan hushyor tortar, asta-sekin ulug'vorlik kasb etayotgan o'tmishimizning sirli sarhadlariga teranroq nazar tashlashga intildik. Ustozlarimizdan ham mana shunday kuyinchaklik, hushyorlikni talab qilar edik. Masalan, 1993-yil fevralda matbuotda ardoqli olimning "Iskandarning o'chini Spitamendan olamizmi?" degan maqolasi e'lon qilinadi. Universitetning yig'ilishlar zalida ayni maqola muhokamasi juda qizg'in o'tgan. Ushbu maqoladagi "Biz hozir ham ko'p narsaga qodirmiz. Maktabni qayta qurishga ham, tarix va madaniy merosni unumli o'rganishga ham. Lekin bunday qilolmayotibmiz. Maktab ahvoli hamon yomonligicha qolib kelyapti, tarix va madaniy merosni o'rganishda oqsab yuribmiz. Shunday bo'lgach, milliy g'urur bilan milliy iftixorni o'qimagan xalq qayerdan olsin? Hamma narsaga shart-sharoit bo'laturib, bu qadar orqada qolganimizning sababi nimada? Fikrimcha, buning sababi bitta — intizom, xususan, ish intizomi bo'sh. O'zimizni, faqat o'zimizni, deb mehnat qilamiz, avlodni o'ylamaymiz. Va yana ba'zan mehnat o'ziga yarasha taqdirlanmaydi. Ilgarigi vaqtlarda inson faoliyati kadrini tanlash, mehnatga yarasha haq to'lash va ijroni tekshirish mezonlari bilan baholangan. E'tibor bilan qarang-a, qanday yaxshi prinsiplar. Afsuski, inson faoliyatini o'lchash uchun birdan-bir halol mezon bo'lgan bu prinsiplar bora-bora yo'qolib ketyapti".

**"To'xtang, ilmiy yangiligingiz bormi?"**

Joriy yil oktabrida akademik Bo'riboy Ahmedov tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab "Amir Temur va temuriylar davri tarixi masalalari" nomli ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Anjuman zaliga kirayotib, hamrohlar bilan akademik Bo'riboy Ahmedovning tadbirlar haqidagi so'zini esladik. Ustoz "Odatda hisobotlarga bag'ishlangan ilmiy kengashlarda, ayniqsa, yuqoridan biror rahbar kelib o'tirguday bo'lsa, so'zga chiqadigan shtati notiq — "to'qushlar" bo'ladi. Ular asosan rahbarlarni ko'kka ko'tarib maqtaydi, boshqalarga tanbeh bermoqchi bo'ladi. Lekin hech kim "To'xtang, birodar! Bu — ilmiy muassasa, bu yerda ishlaydigan odamlarning qadr-qimmatini ilmiy ish bilan — bosilgan kitob bilan o'lchaydi. Qani, aytinch, o'zingiz bu yil qanday ilmiy asar chop ettirdingiz, nechta shogird tayyorladingiz?" deb surishtirmaydi", derdi. Ayni damda xalqaro anjuman dasturi ana shu fikrni hisobga olib tuzilganiga guvoh bo'ldik.

Konferensiyada so'zga chiqqanlar — Xalqaro Amir Temur jamoat fondi raisi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali, Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori Azamat Ziyov, Sharqshunoslik universiteti rektori Gulchehra Rixsiyeva, akademik Ahmadali Asqarov, Bo'riboy Ahmedovning qizi Ra'no Ahmedova, akademik Dilorom Yusupova, tarix fanlari doktori, professor Omonullo Bo'riyev va boshqalar olimning insoniy fazilatlari, ilmga chanoqligi, u haqidagi qiziqarli xotiralar bilan o'rtoqlashdi.

Ustozimiz juda kamtar inson edi, — deydi tarix fanlari doktori, professor, akademik Dilorom Yusupova. — Ikkinchi jahon urushida 11 jойdan jarohat olganini biz — shogirdlariga hech qachon bildirmagan. Vatan uchun fidoyilikni hayotining muhim mezon, tabiiy jarayon deb bildirdi. Shu bois, hali 18 yoshga to'lmay, ko'ngillilar qatorida frontga ketgan. Ustozimizning yuragida ham muammo bor edi. Lekin o'g'riq bezovta qilsa ham tinmay ishlaganiga, matonatiga qoyil qolganmiz. U biror marta yaxshi ishlashim uchun sharoit yaratib beringlar deb hech qachon aytmagan. Shogirdlariga mehribon bo'lish bilan birga juda qattiqo'l edi. O'ldimizga qo'yilgan maqsad yo'lida jiddiy izlanishimizni talab qilardi.

O'tyurak yigit urushdan qaytgach, qanchalik ilgama chanoq bo'lmasin, erta yetim qolgan to'rt farzandini voyaga yetkazayotgan onasini tashlab ketishga ko'zi qiyamaydi. Ukalarni oyoqqa turg'azish uchun onasiga ko'maklashadi.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



— Sharqshunos bo'lishingizga kim sababchi bo'lgan, deya ko'p so'raganmiz, — deydi siyosiy fanlar doktori, professor Baxtiyor Omon. — Ustoz onasiga qarashib ishlash yurgan kezlari

— Ustozimiz tarixchilar adibi, adiblarning olimi edi, — deydi akademik Ne'matulla Ibrohimov. — Shu bois, tariximizni ommalashtrishdagi xizmati katta bo'lgan. Masalan, "Mirzo Ulug'bek" essensini o'sha paytda boshqa yozuvchi-shoirilar yoza olmas edi. Chunki ularda asosli manba bo'lmagan. Domla esa kerakli manbalarni bilgan, o'qigan



bir o'zi yashaydigan Sobiro'ja eshonbuva degan qarindoshining uyiga tez-tez borib turgan. Sobiro'ja yaxshigina kutubxonasi bor, ziyoli inson bo'lgan. Yosh Bo'riboy kutubxonadagi kitoblar ichidan qaligina kitobni tanlab olib, "Bu qanday kitob?" deb so'raydi. "E, o'g'lim, kitob tanlashni bilarsiz ekansiz, bu kitob Mirxond degan mashhur tarixchi olimning "Ravzat us-safo" degan noyob asari", deydi Sobiro'ja. Bo'riboy bu kitobni o'qish uchun qarindoshidan arab imlosi va fors tilini o'rganadi. Shu voqea bois, sharqshunos bo'lishga jiddiy ahd qiladi. Armiyada chala qolgan "ruscha bilimi"ni ham mustahkamlaydi. Shu bois, ustozning so'z lug'ati juda boy edi. Ilmiy kitoblarini o'qisangiz ham, badiiy asarlarini o'qisangiz ham muallifning ohanrabo ifodasiga maftun bo'lasis.

**Tarixchilar adibi, adiblarning olimi edi**

1995-yilda olimning "Amir Temur" tarixiy romani xalqimiz e'tiboriga havola qilindi. Kitobxonlar uni juda sevib o'qidi va bu asar mashhur bo'ldi. Muallif O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolariga qabul qilindi. Shunday qilib Yozuvchilar uyushmasi tarixida birinchi marta tarixchi olimga uyushma a'zosi guvohnomasi berildi.

aniqrog'i, 3200 betli 7 ta kitobni nashr ettirdi. U Amir Temur davrining chuqur bilimdoni edi. Olim "O'zbeklarning kelib chiqishi tarixidan", "Ko'chmanchi o'zbeklar tarixidan", "Xondamir", "Bahr ul-asror", "Balx tarixi", "XV-XVIII asrlar O'rta Osiyo tarixiy-jo'g'rofiy adabiyoti", "Mirzo Ulug'bek", "O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari" kabi kitoblar yozgan, yana o'nlab mumtoz asarlarni o'zbek tiliga o'g'irgan. Ushbu kitoblar tariximizning yozilmagan sahifalariga bag'ishlangani bilan diqqatga sazovor.

**Adolat uchun kurashish hayotining asosiy mezon edi**

Buyuk sarkarda Amir Temurning 660 yillik yubileyi 1996-yilda xalqaro miqyosda keng nishonlanadi. Bo'riboy Ahmedovning "Buyuk Amir Temur" nomli tarixiy romani, bir necha albom-kitobi o'zbek, rus, ingliz tillarida rangli naqshlarda bosmadan chiqadi. Parijda UNESCO tashabbusi bilan o'tkazilgan ilmiy anjumanda Bo'riboy Ahmedov mazmunli ma'ruzalari bilan qatnashib, jahon olimlarining e'tirofiga sazovor bo'ladi. Shu tariqa o'zbek olimining dovrug' ko'plab ellarga tarqaladi. Anjuman ahli iste'dodli olim qalamiga mansub ikki yuzdan ortiq maqola o'z salmog'i, ko'tarilgan muammolar dolzarbligini, ilmiy muomalaga olib kirilgan mo'tabar qo'lyozma manbalar ilmiy qiymati jihatidan juda ahamiyatli ekanini ta'kidlaydi. Hatto bu maqolalarning aksariyati xoriy matbuotida ham chop etilgan.

— Biroq otamning qanchadan-qancha qo'lyozmasi yozuv stollari ustida qolib ketdi, — deydi olimning o'g'li Muzaffar Ahmedov. — Ularni ko'z qorachig'idek avaylab, saqlab kelyapmiz. Shoyad Sharq manbashunosligiga oid asarlar tezroq chop etilib, yosh olimlarning tadqiqotiga manba

yurak oldirib qo'yan edi. 1990-yillardagi uyg'onish davrida Sohibqiron faoliyatiga qaytdi. Bo'riboy Ahmedov Amir Temur, Movarounnahr mavzusi bo'yicha yagona mutaxassis bo'lgani bois, bu o'zgarish va imkoniyatlardan darak beruvchi yangi farmon va qarorlarni bag'oyat xursandlik bilan kutib oladi. Olim ham tashkiliy, ham ilmiy ishlarga yangi shahar kirishib ketadi. Amir Temur nomidagi jamg'armaga raislik qilib, shogirdlarini ham bu qutlug' jarayonga jalb qiladi.

— Bo'riboy Ahmedovda millatparvarlik ruhi juda kuchli edi, — deydi akademik Ne'matulla Ibrohimov. — 1950-yillarda o'zbek xalqining kelib chiqishi dolzarb mavzu bo'lgan va bu borada ko'plab davralarda bahsu munozaralar kuchaygan edi. Ana shu paytda olim Sankt-Peterburgda o'zbek xalqining etnozeji haqidagi dissertatsiyani muvaffaqiyatli yoqlagan. Uning qalami, tahriri juda kuchli bo'lgani bois, manaman degan munozaralardan ham olimga qarshi so'z aytishga botinmagan. Xalqimizning kelib chiqishi borasida hech bir tadqiqotchi Bo'riboy Ahmedov kabi ko'p izlanmagan. Domla bilan suhbatlashgan chog'ini "Mening yagona orzum o'zbek xalqining tarixini xolis yaratish bo'lgan". Ustoz o'sha davrga mukammal sharh va izoh berib bunday yozgan edi: "Har qanday millat o'zining kelib chiqishini, kimligini, nasl-nasabini bilmasa, u davlatning ham, millatning ham kelajagi yo'q". Bu so'zlar biz — shogirdlarga mangu shiordek aytilgan. Zero, vaqt o'tgani sayin bu so'zlarning qiymati oshib boraveradi.

**Olimning shijoati va mehr-u muhabbati manbasi nima edi?**

O'zbekiston radiosi arxivida bir suhbat hamon saqlanadi. Unda akademik Bo'riboy Ahmedov "Agar istiqlolimiz yigirma yil oldin kelganida edi, tariximizga oid 5 ta emas, 50 ta kitob yozgan bo'lar edim", deydi. Olimning bu shijoati, mehru muhabbati manbasi nimada ekan, deya ko'p o'ylandi va ushbu radiosuhbat avvalida akademik aytgan bir hikoya diqqatimni tortdi.

...1928-yildan kolxozlashtrish harakati boshlandi. Domlanning otasi Ahmadxon ham kolxozga a'zo bo'ldi. Kunlardan bir kuni uning qora mehnatdan zerikib jonidan to'yganini, bunday bema'ni ishlarni boshlaganlarni chapaniylarcho so'kkanini ayg'oqchilar eshitib qoladi. Shundan so'ng 1937-yil 28-noyabrda Ahmadxon ota hibsga olinadi. Ortidan ayoli va 4 farzandi yig'lab, qaqshab qoladi. 13 yoshli Bo'riboyning kuni mashaqqatli mehnatga, anduhli kunlarga qoladi. Maktabda ham u "xalq dushmanining o'g'li", deya yakalab qo'yiladi. 1942-yilda bunday musibatlardan zada bo'lgan yigit 18 yoshga to'lmagan bo'lsa-da, ko'ngillilardan bo'lib frontga o'tlanadi. O'shanda or-nomusi kuchli o'zbek yig'iti o'ziga o'zi so'z beradi: "Men o'z xalqimga fidoyi o'g'il va chin do'st ekanimni, albatta, isbotlayman".

Ha, akademik Bo'riboy Ahmedov nafaqat o'z oilasi, balki butun o'zbek xalqi shoni va sha'nini, tarixini tiklagan mard o'g'il, fidoyi farzand ekanini isbotladi. Uning jasorati, shijoati va yuksak bilimi tufayli xalqimizning asrlar to'fonida izsiz yo'qolgan tarixiy adolati tiklandi. Shu bois, ayni kunlarda akademik Bo'riboy Ahmedov fenomeni milliy o'zligimiz, dunyoni larzaga solgan Sohibqiron shuhratiga esh qadrimiz, ko'hna va mumtoz ruhiyatimiz yangilig' yuksak mezonlarda sharaflanmoqda, e'zozlanmoqda.

**Muxtasar TOJIMAMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri**



vazifasini o'tasa... Taniqli olim xonadonida tug'ilib voyaga yetganidan baxtliman. Uymizida el e'zozidagi ko'plab san'atkorlar, olimlar, yozuvchilar mehmon bo'lgan. Ota-onam menga har tomonlama namuna ko'rsatgan. Ular besh farzandni ona vatanga sadoqatli, mehr-muhabbati qilib tarbiyalashga intilgan. Qayerga bormay, ota-onamga munosib farzand sifatida ish yuritishga, odamlar bilan muomala qilishga intilaman. Otam metin irodali, yuragi baquvvat, jasoratli inson edi. "Qo'rqsang, faqat Yaratgandan qo'rq, bandasidan emas", deya ko'p ta'kidlar edi. Adolat uchun kurashishni hayotining asosiy mezon deb bildirdi.

**"Nasl-nasabini bilmagan millatning kelajagi yo'q"**

Sobiq tuzum davrida tarixchilar Amir Temur va temuriylar davri haqida og'iz ochishdan



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifaligi chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 4579. 39932 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova  
Musahhih: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 22:15 Topshirildi — 00:45

Qabulxonaga: (71) 233-56-33 Devonxonaga va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05